

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası**

**Qo'lyozma huquqida**

**OTAQO'ZIYEV BEKZODNING BEKMIRZAYEVICH**

**MILLIY G'OYANI XALQIMIZ ONGI VA E'TIQODIGA SINGDIRISHDA  
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI**

**5111600-“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” ta'lim yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Ilmiy rahbari: E.Karimov**

**ANDIJON-2015**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b>	.....	<b>3-7</b>
<b>I-BOB</b>	<b>MILLIY G‘OYANI XALQIMIZ ONGI VA E‘TIQODIGA SINGDIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLINI ILMIY – NAZARIY ASOSLARI . . . . .</b>	
	1.1. Milliy g‘oya targ‘ibotining axboriy shakllari . .	8-21
	1.2. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni.	22-31
<b>II-BOB</b>	<b>OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA UNING MILLIY G‘OYANI XALQIMIZ ONGI VA E‘TIQODIGA AYLANTIRISHDAGI ROLI</b>	
	2.1.Ommaviy axborot vositalari milliy g‘oyaning hayotga tadbiq etishda muhim vosita. . . . .	32-43
	2.2. Milliy g‘oyani xalqimiz ongi va e‘tiqodiga aylantirishda matbuotning o‘rni. . . . .	44-52
<b>XULOSA</b>	.....	<b>53-54</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	.....	<b>55-61</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Milliy g‘oyani xalqimiz ongi va e‘tiqodiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining rolini, ularning o‘zaro aloqadorlikdagi ijtimoiy mohiyatini ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo‘lib borayotgani haqida gapirib o‘tirishga hojat yo‘q»<sup>1</sup>. Shunday ekan, bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish jarayonida ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga milliy g‘oyada aks etgan g‘oyalar ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlarini ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilinishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganish va tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo‘liga o‘tgan jamiyatimizga ham katta o‘zgarishlar olib kirdi. Zero, bu o‘zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi. XXI asr – axborotlashgan jamiyat asridir. «XXI asr - Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek, yangi asr – axborot, yuksak texnologiyalar va zamonaviy bilimlar, oldimizda ochilayotgan yangi istiqbollar asridir»<sup>2</sup>. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda axborotning tez va sifatli aylanishini ta’minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalarida berilayotgan axborot yoki xabarlar global mohiyat kasb etmoqda. Chunki, ommaviy axborot vositalaridagi

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. Т., “Ўзбекистон”, 2005.,194-б.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. -Т.: Ўзбекистон, 2003. -54 б.

axborot yoki xabar inson tafakkuriga turli yo‘nalishlarda ta‘sir o‘tkazuvchi, insoniyat hayotini, taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh ijobiy goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega...”<sup>1</sup>dir. Ayni shu ma‘noda Prezidentimiz Islom Karimov “Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so‘z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta‘minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo‘lmasligini o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz”<sup>2</sup> deb ta‘kidlaydi.

Axborotlashuv jarayoni oqibatida dunyo miqyosida yagona yaxlit axborot maydoni shakllandi. Dastlab olimlar axborotlashuv jarayonini ko‘proq texnogen jarayon sifatida talqin qilishga moyillik bildirib, uning siyosiy va ma‘naviy jihatlariga e‘tibor bermadilar. Lekin so‘nggi paytlarda uning bu jihatlariga ham alohida to‘htalib o‘tilmoqda va qayta – qayta takrorlanmoqda. Chunki bugun butun dunyoda ijtimoiy munosabatlar, odamlarning yashash va tafakkur tarzida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Ayni shu ma‘noda Islom Karimov “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda”<sup>3</sup> - deb yozadi.

Mamlakatimizda hozir milliy ommaviy axborot vositalari tizimini shakllantirish, axborotlashtirish sohasini tartibga solish, axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu qayd

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 1992. 29-модда.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. - 28 б.

<sup>3</sup> Каримов И. Юксак маънавият энгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. 110-б.

etilgan qonunlarda milliy ommaviy axborot vositalari tizimining huquqiy asoslari belgilab berildi.

Shunga ko'ra tadqiqotning dolzarbligini yana quyidagilarda ifodalash mumkin:

**Birinchidan**, milliy g'oyani xalqimiz ongi va e'tiqodiga singdirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili, uning tarixiy ildizlariga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, kishilik jamiyatining ming yillar davomidagi tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviyatsiz, kuchli va izchil milliy g'oyasiz, sog'lom mafkurasiz har qanday ijtimoiy tizimning rivojlanishi mumkin emas.

**Ikkinchidan**, milliy g'oyani yoritishda ommaviy axborot vositalarida berilgan maqolalarni tanqidiy va tahliliy jihatdan muntazam ravishda tahlil etib borish dolzarb ahamiyatga ega.

**Uchinchidan**, milliy g'oyani yoritishda ommaviy axborot vositalarida berilgan maqolalarni tahlili ularni amaliyotda joriy etish yo'l-yo'riqlarini yoritib berishda dolzarb hisoblanadi.

Ana shunday va shu kabi muammolar bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib, ko'plab ilmiy adabiyotlarda muhokama qilingan. Lekin milliy g'oyani yoshlar ongi va e'tiqodiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining roli masalasi etarli o'rganilmagan.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Milliy g'oyaning ijtimoiy hayotdagi roli, ularda ilgari surilgan g'oyalarning tahliliga alohida e'tibor bergan mamlakatimiz olimlari jumlasiga S.Shermuhamedov, M.Quronov, Q.Nazarov, S.Mamashokirov, A.Ochildiev, F.Musaev kabilarni kiritish mumkin.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda axborot va axborotlashtirish jarayonlarining falsafiy masalalariga oid - O.F.Fayzullaev, M.N.Abdullaeva, Z.D.Davronov, N.A.Shermuxamedova, J.S.Abdullaev, O.V.Lanseva, O.M.Kostrina, M.YOqubova; iqtisodiy masalalariga oid – S.S.G'ulomov, A.Shermuxamedov, AA.T.Kenjaboev, Q.A.Alimov, huquqiy masalalariga oid – A.Rasulev,

SH.Saydullaev, J.Safarov, N.Salaev, M.Sodiqov, A.G‘ulomov, A.YAkovenko<sup>2</sup>  
kabi olimlarning ilmiy maqolalar mavjud.

**BMI maqsadi.** Milliy g‘oyani yoshlar ongi va e‘tiqodiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining rolini o‘rganishdan iborat.

**BMI vazifalari:**

- milliy g‘oya targ‘ibotining axboriy shakllarini tahlil qilish;
- O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o‘rnini aniqlash;
- ommaviy axborot vositalari milliy g‘oyaning hayotga tadbiiq etishda muxim vosita ekanligini ilmiy tahlil qilish;
- milliy g‘oyani xalqimiz ongi va e‘tiqodiga aylantirishda matbuot omil ekanligiga oid nazariy va amaliy taklif – tavsiyalarni ishlab chiqish;
- barkamol insonni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati yoritish;
- globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’sirini to‘g‘ri baholashdan iborat.

**BMI ob’ekti va predmeti.** Ommaviy axborot vositalarida milliy g‘oya targ‘ibot tizimi tadqiqotning ob’ektidir. Tadqiqotning predmeti milliy g‘oyani yoshlar ongi va e‘tiqodiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining roli tahlili tashkil etadi.

**Ilmiy yangiligi:**

- milliy g‘oya targ‘ibotining axboriy shakllari tahlil qilindi hamda O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni aniqlandi;
- ommaviy axborot vositalari milliy g‘oyaning hayotga tadbiiq etishda muhim vosita ekanligini ilmiy tahlil qilinib, milliy g‘oyani xalqimiz ongi va e‘tiqodiga

---

<sup>2</sup> Қайд этилаётган муаллифлар асарларининг номи ва чоғ этилганлигига оид маълумотлар диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатига киритилган.

aylantirishda matbuotning tutgan o‘rniga oid nazariy va amaliy taklif – tavsiyalar ishlab chiqildi;

- barkamol insonni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati yoritilib, ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri aniqlandi;

- ommaviy axborot vositalari milliy g‘oyaning hayotga tadbiiq etishda muxim vosita ekanligi tahlil qilinib milliy g‘oyani xalqimiz ongi va e’tiqodiga aylantirish hamda fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili ekanligiga oid nazariy va amaliy taklif – tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda yoritilgan fikr-mulohaza va xulosalar jamiyat taraqqiyotida milliy g‘oya, ommaviy axborot vositalarining ma’naviy, iqtisodiy hayotda tutgan mavqeini o‘rganish uchun asos qilib olish mumkin. Shuningdek, unda berilgan xulosa va tavsiyalar Respublikamizda yoshlar faoliyati va milliy g‘oyani shakllantirishda milliy ommaviy axborot vositalari tizimini yanada shakllantirishga oid taklif – tavsiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan 61 betdan iborat.

# **I.BOB. MILLIY G‘OYANI XALQIMIZ ONGI VA E‘TIQODIGA SINGDIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLINI ILMIY – NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Milliy g‘oya targ‘ibotining axboriy shakllari**

Mustaqillik O‘zbekiston xalqi uchun orziqib kutilgan voqeilik bo‘lishi bilan birgalikda u xalqning kelajak umidi ham. Chunki, “Ertangi kunga ishonch bilan yashayotgan, katta intilish va umid bilan mehnat qilayotgan xalqimizga oshkora, ochiq tashkil qilingan muloqot-suhbat, xalqqa bildirilgan hurmat ehtirom odamlarning adolatga bo‘lgan ishonchini so‘nib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, ularning faolligini yanada oshiradi”<sup>1</sup>

Istiqlolning dastlabki yillarida mustaqillikni asrab qolish, tanlagan yo‘limizdan og‘ishmay borish g‘oyasi qanchalik dolzarb masala darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, bugun esa ular nafaqat amalga oshirildi, shu bilan birgalikda siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy mustaqilligini mustahkamlash — milliy davlatchiligimizni qurish; xalqaro maydonda obro‘ e‘tiborini oshirish — yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni saqlash; asl ma‘naviy-madaniy qadriyatlarimizni, milliy udum va an‘analarni tiklash, demokratik tamoyillarni qaror toptirish va fuqarolik institutlarini tuzish kabi ulkan tarixiy ishlar amalga oshirildi<sup>2</sup>.

Shuning bilan birgalikda mustaqillik davrida millatlararo totuvlik g‘oyasining OAVda ayniqsa televizion ko‘rsatuvlarda keng, xolis targ‘ib etish sari boshlangan, tobora kuchayib borayotgan olijanob va qudratli harakat yangicha tus oldi. Eng muhimi bunday harakat, bunday intilish bilan yashaydigan xalqni o‘z buyuk maqsadlaridan qaytarib ham, to‘xtatib ham bo‘lmaydi.

Istiqlolga erishganimizdan so‘ng O‘zbekiston Televideniesi faoliyati mohiyati davlat g‘oyalari targ‘ibotchisi, millatlararo aloqalarni mustahkamlash va yuksaltirish vositasiga aylanib, xalq ertangi kuni yo‘lida asosiy kuchlardan biri

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимдан кам бўлмайди. 13-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б.12

<sup>2</sup> Ўша манба, -Б.94

bo'lib belgilandi deyish mumkin. Mustaqillik ostonasida turli millat vakillaridan tashkil topgan butun xalq o'z oldiga huquqiy davlat va erkin farovon jamiyat qurishni qo'ydi. Tashviqot, targ'ibot ishlari ommaviy axborot vositalari oldiga katta vazifalarni qo'ydi. Bu olijanob maqsadga erishish uchun davlatimiz va prezidentimiz bir qator chora tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1992 yil 7 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi televidenie va radioeshittirish Davlat Komiteti O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga asosan mamlakatda teleradioeshittirish tashkilotini rivojlantirish, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, o'z navbatida xorijiy davlatlarning teleradio tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashini muvofiqlashtirish, teleko'rsatuv va radioeshittirish faoliyatini huquqiy ta'minlashni takomillashtirish masalalari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Yurtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi»<sup>1</sup>.

1994 yil 28 martida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Davlat televidenie va radioeshittirish kompaniyasining ko'rsatuv va eshittirishlari hajmini ko'paytirish, uning moddiy-texnika negizini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. O'zbekistonda keyingi yillarda sun'iy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. YUrtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. - 29 б.

ko'rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda<sup>1</sup>.

1996 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televidenie va radioning rolini oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi va O'zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi joylarda hududiy bo'linmalariga ega bo'lgan O'zbekiston teleradiokompaniyasi (O'zteleradio) deb o'zgartirildi. Bundan ko'zlangan maqsad mamlakatimizda konstitutsiyaviy taraqqiyotni ta'minlash, qonunchilikka rioya etish hamda inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilishning g'oyat muhim muassasi sifatida teleradioeshittirishni yanada rivojlantirish, Shuningdek, uning respublikada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga ta'sirini kuchaytirishdan iborat edi va aytish mumkinki, bu maqsadga erishildi ham. SHu bilan birga farmonga asosan telekanallar faoliyati rivojlantirildi va jurnalist kadrlarni sohalarga ixtisoslashtirish borasida bir qator ishlar qilindi.

1997 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston teleradiokompaniyasi tizimini texnika bilan kompleks qayta jihozlash to'g'risida» gi qarori e'lon qilindi.

Qarorga asosan 1998-2006 yillar davomida «Respublika teleradiomarkazi» davlat unitar korxonasi, «O'zbekistontelefilm» davlat unitar korxonasi bilan birga Namangan, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari teleradiokompaniyalari ham Avstriyaning «Simeks AG» va Germaniyaning «BFE AG» firmalarining eng zamonaviy texnikalari bilan jihozlandi. «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o'tish bo'yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilishi ham ushbu vazifani hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini

---

<sup>1</sup> Qarang: Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. - 30 б.

shakllantirish, bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratishga qaratilishi darkor.

Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi oʻrni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning soʻz erkinligi va tanlash erkinligini taʼminlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada toʻliq roʻyobga chiqarishga yordam beradi<sup>1</sup>.

1998 yil 26 martdagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy-maʼnaviy muhitni yanada sogʻlomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora tadbirlari toʻgʻrisida»gi qaroriga koʻra 1998 yil iyul oyidan «YOshlar» tele va radiokanallari tashkil etildi va telekanalning efir hajmi 16,0 soatga etkazildi. Bu ishlarning barchasi oldinga qoʻyilgan maqsadning nechogʻlik muhim ekanligini anglatadi.

2003 yil 4 noyabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ommaviy sport targʻibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qaroriga binoan «Sport» telekanali tashkil etildi.

2005 yil 8 noyabrda esa, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Mustaqil teleradiokanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Farmoni bilan mustaqil teleradiokanallarni yanada rivojlantirish va isloh qilish ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholi hamda jamiyatning har tomonlama xolis axborotga boʻlgan talab-ehtiyojlarini qondirishda mamlakatimizning elektron ommaviy axborot vositalari rolini oshirish maqsadida Oʻzbekiston teleradiokompaniyasi Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi etib qayta tashkil etildi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. - 30 б.

<sup>2</sup> Жабборов С.М. Журналистиканинг самарали фаолият юритишига халқаро ва миллий ҳуқуқнинг таъсири.— Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. Оммавий Ахборот Воситаларининг ҳуқуқий асослари- Т.: Ўзбекистон.2005

Bu farmonda milliy teleradiokompaniyaning asosiy vazifalari belgilab berildi. Unga ko‘ra aholining ta‘lim va madaniy saviyasini oshirish, milliy an‘analarni, tarix va merosni saqlab qolish, fuqarolarning ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, yoshlar va o‘sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va umumjahoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan teledasturlarning tematik yo‘nalishlarini aniqlash va ularning professional, badiiy darajasini yuksaltirish ko‘zda tutilgan.

2006 yil 27 dekabrda mazkur farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori e‘lon qilindi<sup>1</sup>. Dunyodagi etakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, Shuningdek, bosma materiallar va teleko‘rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda<sup>2</sup>.

Mustahkam huquqiy poydevorga ega bo‘lgan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bugungi kunda millatlararo totuvlikni ta‘minlash va uni televideniada keng va holis yoritish maqsadida qator horijiy tillarda o‘z

---

<sup>1</sup> Қаранг: www.MTRK.uz Журналистлар ҳуқуқий саводхонлиги муаммолари. Тележурналистика ва ҳуқуқ. Тўплам. - Т.:РКПМТ, 2003.

<sup>2</sup> Қаранг: Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. - 30 б.

ko'rsatuvlarini uzatib borayapti. Bu ishlarni, asosan, «Do'stlik» bosh muharririyati amalga oshiryapti. Ushbu turdagi ko'rsatuvlar o'zbek, rus, qozoq, tojik turkman tillarda olib borilmoqda.

Qozoq millatiga mansub O'zbekiston fuqarolarining bugungi hayoti, ularning milliy an'ana va qadriyatlari taraqqiy etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar kabi mavzular, O'zbekistonda yashayotgan qozoq millati vakillarining hayoti va faoliyati orqali aks ettiradigan «Didor», koreys millatiga mansub O'zbekiston fuqarolarining bugungi hayoti, ularning milliy-an'ana va qadriyatlari taraqqiy etishini yoritib beradigan «Chinsin», Qoraqalpog'iston Respublikasining bugungi kuni, o'zgarishlar, qoraqalpoq xalqining o'ziga xosligi, turmush tarzi hamda ijtimoiy-madaniy rivoji, ilmu fan taraqqiyoti haqidagi «Maurid» badiiy-tahliliy dasturi, tojik millatiga mansub O'zbekiston fuqarolarining bugungi hayoti, ularning milliy-an'ana va qadriyatlari taraqqiy etishini aks aks ettiradigan «Ranginkamon» publitsistik ko'rsatuvi, Qoraqalpog'iston Respublikasining bugungi kuni, o'zgarishlar, qoraqalpok xalqining o'ziga xosligi, turmush tarzi hamda ijtimoiy-madaniy rivoji, ilmu fan taraqqiyoti haqidagi «Qoraqalpoknoma» o'zbek tilidagi badiiy-taxliliy dasturlari, bundan tashqari bosh muharririyat tarkibiga kiruvchi ko'rsatuvlarning ko'pchiligida millatlararo totuvlikni taminlash tamoyili targ'ib qilinayapti. Bu «Bir o'lkaki» (yurtimiz tabiati va o'zbek xalqining bugungi hayoti, xalqimizning o'ziga xos turmush-tarzi, milliy an'ana va qadriyatlari haqida hikoya qilinadi), «O'zbekiston – umumiy uyimiz» (davlatimizning jamiyatda millatlararo totuvlik va bahamjixatlik muhitini qaror toptirishga qaratilgan siyosati keng targ'ib qilinadi), «Tabarruk zamin», «Imkoniyat», «Hayotimiz qomusi», «Jarayon», «YAgona oilada» (baynalmilal madaniyat markazi bilan hamkorlikda mamlakatimizda millatlararo totuvlik, turli millatlarning urf-odat va an'analari rivojlanib borishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar kabi masalalar yoritiladi)<sup>1</sup> kabi ko'rsatuvlari millatlarning muhim

---

<sup>1</sup> Турақулов З. Журналистдан нега ҳадиксирайсиз?//Адолат.-2003. 6 июн “Садо” газетаси-2000-2009 йил сонлари. [www.MTRK.uz](http://www.MTRK.uz)

hayotiy manfaatlariga daxldor bo'lgan qarashlarni shakllantirishda, o'zaro hamjihatlik va amaliy harakatlar mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«Do'stlik» bosh muharririyati faoliyatini kuzatar ekanmiz, 130 dan ziyod millat vakillarining o'zaro bahamjihat va vatan ravnaqi yo'lida hamfikr bo'lib yashashlarida nomlari tilga olingan bir qator fidoyi jurnalislarimiz qo'lga kiritgan axborotga fikriy uyg'oqlik bilan yondashib, uni xolis, haqqoniy tarzda ommaga taqdim etib, xalqimizning bunyodkorlik ishlarini, buyuk kelajak barpo qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarini keng targ'ib etishi, ko'p millatli vatandoshlarimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohadagi islohotlar, mamlakatni demokratriyashtirish jarayonlaridan xabardor qilish bilan birga yurt manfaati har bir fuqaro uchun birlamchi ekanini doimo anglatib turish yo'lidan bormoqdalar. Bu esa jurnalistlarning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy mezondir.

Jamiyat madaniy taraqqiyotining muxim mezonlaridan hisoblangan milliy g'oya va uni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida Islom Karimov bir qancha taklif – tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Shuningdek, milliy g'oyani quydagicha ta'rif berib o'tganlar. “Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzuintilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylanmanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz”<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan mamlakatimiz tarixida yangi davr boshlandi. Bugungi kunda respublikamizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab olindi. SHu bois, demokratik jamiyat barpo etish va bu jarayonda milliy g'oyaning ahamiyatini, ularning o'zaro aloqadorlikdagi ijtimoiy mohiyatini ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.-Б.71.

aylandi. Zero, «Hech kimga sir emas - biz qurayotgan yangi jamiyat, hayotimizga tobora kirib kelayotgan yangilanish jarayonlari, islohotlarning taqdiri va kelajagi, avvalo, xalqimizning bu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashiga, joylarda bu borada odamlarimizning faolligi, ularning dunyoqarashi, ongu tafakkurining yuksalishiga bog'liq»<sup>1</sup>. SHunday ekan, bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish jarayonida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga milliy mafkuramizda aks etgan g'oyalar ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish katta amaliy ahamiyatga egadir.

Islom Karimov milliy g'oyani singdirishda avvalambor milliy g'oya, milliy mafkura negizida odamlarning erkin hayot, obod va ozod vatan qurish yo'lidagi sa'y-harakatlari, intilishlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g'oyalarni boyitib-rivojlantiradigan va kuchaytiradigan idoralar faoliyatini tashkil etish zarur<sup>2</sup> deb ta'kidlaydi.

Islom Karimov «Xalqimizga xos vazminlik, sipolik, kamtarlik fazilatlari insonni ulug'laydi. Minbarda turib, tilga erk berib, vakolati bo'lmasdan turib xalq nomidan gapirishga hech kimning, hech qanday haqqi yo'q<sup>3</sup> deganlarida xalqimizga xos ma'naviy – ahloqiy me'yorlarni nazarda tutgan edi.

Islom Karimov milliy g'oyaga qarshi tahdidlarni quydagicha sharhlaydi: ... hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko'rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo'ravonlik bilan o'z hukmronligini o'rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo'ladi. Bu - hayot. Bu - hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o'z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko'rish mumkin. Ikkinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o'zing tug'ilib o'sgan, ota-bobolaring xoki yotgan, ertaga farzandlaring kamol

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш - устувор вазирамиздир. -Т.: Ўзбекистон, 2006. -Б. 3.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 29-бетлар.

<sup>3</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 63-бет

topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo'lsa, bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak.

Uchinchi achchiq xulosa shuki, har qaysi el, har qaysi yurt chetdan keladigan yovuz ofatdan ko'ra, o'z ichidan chiqadigan sotqin, iymonsiz, o'zining manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, kerak bo'lsa, eng yaqin kishilarini ham sotadigan, o'zini o'stirgan, voyaga etkazgan Vataniga qo'l ko'taradigan qabih kimsalardan nihoyatda ehtiyot bo'lishi kerak. Bunday kuchlar, razil shaxslarning kibru havosi, manfur maqsadlari el-yurt tinchligi va taraqqiyotiga qanday xavf-xatar ekanini bugungi hayotimizda ko'rib turibmiz.<sup>1</sup> SHu bilan birga, yana bir tushuncha hayotimizga kirib bormoqda. Biz jamiyatimizda chindan ham adolat va haqiqat hukmronligini o'rnatmoqchi ekanmiz, yurtimizda eski tuzumdan qolgan noinsoflik, poraxo'rlik, ta'magirlik, korrupsiya, zo'ravonlik, mahalliychilik, uruq-aymoqchilik kabi barcha yaramas unsur va illatlardan xalos bo'lmoqchi ekanmiz, avvalo, Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga itoat etish, qonun ustuvorligini amalda hayotimizda ta'minlash zarurligini hammamiz yaxshi anglab olmoqdamiz.<sup>2</sup>

Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axlokiy kadriyatlarga tayanadi va O'larni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol goyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar-lik ruxida tarbiyalashga asoslanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangalashdan kuzlangan bosh maksad -yurt tinchligi. Vatan ravnaqi. Xalk erkinligi va farovonligiga eritpipt., komil insonni tarbiyalash. ij-timoiy xamkorlik va midlatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi kup-kup muxim masalalardan iborat. O'tgan o'n besh yil davomida — mustaqil taraqqiyot yillarida amalga oshirgan ulug'vor ishlarimiz ham bu hakda muayyan tasavvur beradi.

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 74-бет.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 87-бет

Xalqimiz ichida “falonchining o‘g‘li yoki qizi yo‘ldan ozdi”, “aynidi” “yo‘ldan urishibdi”, “xiyonat qildi”, “ishonchdan chiqdi”, degan iboralar yuradi. Bular bir odam haqida ilgaridan mavjud bo‘lgan tushuncha xulosaning o‘zgarganligini odamlar bir-birlariga shunday bildiradilar. Bu – biror kishi haqida xalq fikrining yo yaxshi, yo yomon tomonga o‘zgarganligini, bundan keyin unga munosabatda, u bilan hamkorlik qilishda shuni hisobga olinglar, degan ma‘noni bildiradi. Bunga sabab – odamning biror sinov vaziyatida o‘z obro‘si, hurmatini saqlab, unga ilgaridan bildirib kelinayotgan ishonchni himoya qilganligi, yoki aksincha, oqlamaganligini, ishonchdan qolganligini bildiradi. Bu – mafkuraviy immunitetning o‘zbeklarimizning kundalik hayotidagi ko‘rinishlaridan biri, desa bo‘ladi.

Aslida mafkuraviy immunitetning ichki tuzilishi qanday? Mafkuraviy immunitet – odam o‘z xayotida amal qiladigan anglangan qoidalar yig‘indisi. Yoki ramziy qilib, uni shaxsning mafkuraviy konstitutsiyasi deb atasa ham bo‘ladi. Bu konstitutsiya ikki asosga tayanadi. Birinchisi – u yashayotgan milliy-ma‘naviy muhitda qabul qilingan meyorlar. Ikkinchisi – shu me‘yorlarning odam dunyoqarashida o‘zlashtirilgan qismi.

Demak, shaxs va jamiyat mafkurasi uyg‘unligi jamiyatni, davlatni kuchli qiladi. Aks holda, odamlar mafkurasi hammani birlashtirib turuvchi umummilliy g‘oya, mafkura, dunyoqarashdan qanchalik uzoqlashsa, bunday jamiyat shunchalik mafkuraviy parokandalikka yaqinlasha boradi. Bu muammoni milliy tarbiya, mafkuraviy profilaktikaga yshnaltirilgan targ‘ibot– tashviqot ishlari bartaraf qiladi.

Har bir mamalakatning o‘z targ‘ibot–tashviqot tizimlari bor. Ular turlicha nomlansa xam maqsad va funksiyalari bir. Ya‘ni umummilliy birlikni yaratish, saqlab turish, kuchaytirish, umummilliy maqsad sari rag‘batlantirish, yo‘naltirishdan iborat. “Agar tarixga nazar solsak, ilgari kuchli davlatlar zaif mamlakatlarni ochiqdan-ochiq bosib olib, ularga o‘z hukmini o‘tkazgan bo‘lsa, XX asrning oxiriga kelib, bunday siyosat yangi bir shakl kasb etdi. Xozirgi vaqtda kudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o‘z maqsadlariga erishish uchun

avvalo zabt etmokchi o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intiladi".<sup>1</sup>

Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz - milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. Har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, umumiy gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma'naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo'lishi shart.

Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat.<sup>2</sup>

Ilgari ham ko'p bora aytganman, yana bir marta ta'kidlamoqchiman: mamlakatimiz sarhadlarini qo'riqlash, daxlsizligini ta'minlash, fuqarolarimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilishga armiyamizning salohiyati, davlatimizning kuch-qudrati etarli. Lekin meni hali suyagi qotmagan, ongi endigina shakllanib kelayotgan farzandlarimizning yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli ko'proq xavotirga soladi. Yoshlarimizning ba'zan soxta g'oyalar orqasidan ergashib ketayotgani biz uchun eng katta xavf, desam mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun ham ularni asrashimiz, bugunimiz uchun, kelajagimiz uchun suvdek, havodek zarur bo'lgan milliy g'oya, milliy mafkura haqida jiddiy bosh qotirishimiz kerak. Beshinchidan, milliy g'oyaning yana bir muhim ahamiyati shundan iboratki, u millatimizning, xalqimizning o'zligini anglashiga, o'zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo'qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, e'zozlab,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000. 491-бет

<sup>2</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 341-бет

yangi, o'sib kelayotgan avlodga etkazib berish uchun xizmat qilishi kerak. Oltinchidan, milliy g'oya oldiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida gapirmoqchi bo'lsak, avvalo uning ikki suyangan toqi - tayanchi haqida fikr yuritishimiz zarur.

Birinchi navbatda, milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmoqi darkor.<sup>1</sup>

Bolalarimiz o'qiyotgan kitoblarda ma'rifat ziyosi bormi, biz istayotgan milliy g'urur, milliy mafkura, milliy g'oya ularda etarli darajada aks etganmi?

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 550 ming o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda, ya'ni ziyo tarqatmoqda. Besh milliondan ortiq farzandlarimiz maktablarda, turli bilim yurtlarida ta'lim olmoqda. Ularning tarbiyasi haqida o'ylashimiz, yoshlarimizning baxtli kelajagi uchun qayqurishimiz, yosh naslimizni milliy g'oya va milliy mafkura bilan qurollantirishimiz kerakmi-yo'qmi? Meni qiynaydigan narsa shuki, mustaqillikka erishganimizdan buyon, mana, to'qqiz yil o'tyapti, lekin, afsuski, tashviqot-tarqibot ishlarida bizga asos, "qurol" bo'la oladigan manba hali yaratilgani yo'q. Aziz birodarlar, bilib qo'yinglar, ma'naviy, ruhiy dunyoda hech qachon bo'shliq bo'lmaydi. Jamiyat hayotida sog'lom g'oya ustuvor bo'lmas ekan, albatta yot, zararli ta'sirlar suqilib kirishga harakat qiladi. Bu - qonuniyat.

Ayniqsa, bu xavf biz uchun nihoyatda kuchli. Chunki xalqimizning tabiatida soddalik, ishonuvchanlik xususiyatlari ustun. Agar mendan, dunyodagi eng sodda, eng oqko'ngil millat kim, deb so'rasa, o'zbek millati, o'zbek xalqi deb aytgan bo'lar edim.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000. 466-бет

<sup>2</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 469-бет

SHu ma'noda aytmoqchimanki, chetdan ta'sir ko'rsatayotgan mafkuraviy tazyiqlar aslida bizning millatimiz, dinu e'tiqodimiz uchun tamomila zid, ammo ular turli yo'llar bilan yurtimizga kirib kelyapti. Chunki ularning orqasida katta kuch, katta mablaq turibdi. Bu kuchlarning maqsadi - tinchligimizni buzish, tanlagan yo'limizdan qaytarish, o'z ta'sirini o'tkazish, O'zbekistonga hukmronlik qilish.<sup>1</sup>

Mafkuraning hayotiyliga uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilidsharini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymon-e'tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina u eng zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi.

Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar er kurrasini bir necha bor yakson qshshshga etadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katga xavf — insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal kiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim.

Yuqoridagi fikr – mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy g'oyani xalq ongi va e'tiqodiga singdirishda quydagilar muxim ahamiyat kasb etadi:

- milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar bilan qurollantirish;
- hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish;
- buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishga tayyor bo'lishlari zarur.

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 470-бет

Milliy g'oyani xalq ongi va e'tiqodiga singdirish pedagog kadrlarning g'oyaviy-nazariy va uslubiy tayyorgarligiga ham bog'liqdir. Har bir professor-o'qituvchi, eng avvalo, milliy g'oyamizning targ'ibotchisi bo'la olishi kerak.

## **1.2. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni**

XXI-asr–axborot asri, ma’rifat asri. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda ommaviy axbarot vositalarining roli va ahamiyati beqiyosligini izohlashga hojat bo‘lmasa kerak. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk davrda ijtimoiy hayot soxasida ham mutlaqo yangi sifat o‘zgarishlar davri boshlandi. Mamlakat ijtimoiy, siyosiy hayotida ro‘y bergan tub sifat o‘zgarishlar ommaviy axbarot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo‘ydi. U ham bo‘lsa, mamlakat fuqarolari o‘rtasida keng qamrovli milliy istiqlol g‘oyalarini targ‘ibot qilish asosida ularni kelajagi-buyuk O‘zbekistonni yaratishdek olijanob ishga safarbar etishdan iborat edi.

SHo‘rolar davrida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan ommaviy axborot vositalari o‘z milliy zaminidan uzilgan edi. U o‘zbek xalqiga, O‘zbekistonga xizmat qilmas edi. Ommaviy axborot sho‘rolar zamonida kommunistik mafkura dastyori sifatida mehnatkashlar ongi va dunyoqarashida tobelik, qaramlik va qulik g‘oyalarini targ‘ib qilar edi. Mustaqilligimizning ilk onlaridan boshlab, bunday xolat bizga to‘g‘ri kelmasligi bilinib qoldi. Bu xaqida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov «Erkin va va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to‘rtinchi tarmog‘i bo‘lmog‘i darkor»<sup>1</sup> deb o‘z nutqlarida ta’kidlab o‘tgan edi. Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari har bir inson o‘z fikrini ifoda eta olishga imkon beradigan erkin minbar bo‘lishi kerak. U mamlakat fuqarolari hayotida har tomonlama muhim rol o‘ynashi lozim. Kelajagi buyuk mustaqil demokratik jamiyat qurishda fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy huquqiy va madaniy ongini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ommaviy axborot vositalari milliy istiqlol uchun jamiyatni demokratlashtirish va kelajagi buyuk O‘zbekistonni taraqqiy ettirishning o‘tkir quroli ekanligi isbot talab qilinmaydigan

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон 21 асрга интиломқда -Т.: Ўзбекистон, 2000. -174 б.

haqiqatdir. «To‘rtinchi hokimiyat» hisoblangan ommaviy axborot vositalari mustaqillik sharoitida turli xil fikrlar, rang-barang qarashlar va yondoshuvlarga keng yo‘l ochib berishi lozim, bu o‘z navbatida tarmoq oldiga yangicha fikrlash davr bilan hamnafas odimlash talabini qo‘ydi. Bu boradagi amaliy ishlar mustaqillikdan oldin «O‘zbekiston Respublikasi davlat tili to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilish bilan boshlandi. Ittifoq qonunlarida va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalari haqida hech qanday so‘z yo‘q edi. SHu jihatdan 1992 yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Konstitutsiyaning 67-moddasi ommaviy axborot vositalariga bag‘ishlanadi.<sup>1</sup> Bu ishlar ommaviy axborot vositalari borasidagi qonunchilikni yaratishda ilk qadamlar edi. Binobarin, davlatimizning asosiy Qonunida bu qoida bejiz qayd etilmagan. Konstitutsiyada keltirilgan jumalarda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinlik ko‘rsatish, ularni sadoqat bilan xizmat qilishi kerakligi alohida uqtirilgan.

Mustaqil davlatimizda ommaviy axborot vositalari va shu sohada xizmat qilayotgan ijodkorlarning erkin, keng qamrovli, oshkora faoliyat ko‘rsatishi va haqiqiy «To‘rtinchi hokimiyat» vazifasini bajarishi uchun qator qonunlar qabul qilindi: «Noshirlik to‘g‘risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida», «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida», «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi va boshqa O‘zbekiston Respublikasi davlat qonunlari shular jumlasidandir. Mazkur qonunlarda ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi, huquqlari va erkinliklari belgilab qo‘yilgan.

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi nufuzi va ta’sirini oshirish, shubhasiz, demokratiyaga asoslangan huquqiy ongli fuqarolik jamiyatini qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Islohotlarning samaradorligini ta’minlashda xukumatimiz, jamoatchilik muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Zero, Prezidentimiz «Bugungi kunda odamzod ma’lum bir davlatlar, siyosiy kuchlarning manfaatlarigina xizmat qiladigan, olis yaqin manbalardan tarqatiladigan, turli

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Конституцияси –Т: Ўзбекистон, 2002. -13 б.

ma'no mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Axborot asri, elektrotexnika asri deb atalgan XX- asrning nihoyasida bugungi davrimizda bu ta'sirdan holi bo'lish deyarli imkoniyatsizdir. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ko'proq kuchga ega»<sup>1</sup> deb bekorga ta'kidlanmagan. Yuqoridagi fikrlarni mulohaza qilar ekanmiz, jamiyatni shakllantirishda, fuqarolarning savodxonligini oshirishda, ommoviy axborot vositalarning xizmati beqiyos ekanligiga amin bo'lamiz.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, axborot va texnologiya jihatdan qanchalik tarqqiy etmasin xar bir tarixiy davr inson ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi, murakab masalalarni ko'ndalang qo'yaveradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, bu muommo barcha davrlarda olim-u fuzalo, faylasuf va siyosatshunos, tarbiyachi va murabbiylar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Globallashuv jarayoni ta'sirida mazkur masala yanada keskin tus olmoqda.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab mamlakat mustaqilligini mustaxkamlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslarini yaratish bilan birga ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim tarbiya sohalarni isloh etish, yoshlarimizni ham ma'nau, ham jismonan etuk, bozor iqtisodiyoti sharoitida bema'lol raqobatlasha oladigan, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yuksak aql zakovat sohiblari etib voyaga etkazish davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yurtimizda farzandlarimizning aql salohiyati, qobiliyati va iqtidorini ro'yobga chiqarish ularning tom ma'noda barkamol insonlar bo'lib voyaga etishi, yoshlarimizning talab ehtiyojlari hamda manfaatlarini qondirishga qaratilgan.

Xo'sh, unda oilada, keyin esa o'quv dargohida talim-tarbiya olgan, shu yurtning non-tuzini eb ulg'aygan ayrim yoshlarning g'ayri insoniy hatti-harakatlarini, Vatan va xalqiga xiyonat yo'lga kirayotgan, azaliy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimizni oyoq osti qilib, o'z yurtiga, vatandoshlariga aziyat

---

<sup>1</sup>.Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни миллат қилишга хизмат қилсин. -Т: Ўзбекистон, 1998. -6 б.

etkazayotganini qanday izohlash mumkin? Bu muommoning ildizi qaerda o‘zi? Biz bu keng qamrovli, murakkab masalalarning faqat birgina jihati: globallashtirish jarayonining yoshlar tarbiyasiga salbiy tasiri xususida so‘z yuritmoqchimiz.

Bu jarayon haqida gap ketganda, ko‘pincha turli mamlakatlarning iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, hatto siyosiy integratsiyalashuvi, uning ijobiy va salbiy jihatlari e‘tibor qaratiladi. Lekin nima sababdandir uning madaniy -ma‘naviy soha rivojiga, umuminsoniy hamda milliy urf-odat va an‘analarning xususan, oilaviy qadriyatlarning o‘zaro munosabati masalasiga ta‘siri etarli e‘tibor berilmaydi. Vaholanki ayrim taraqqiy etgan davlatlar siyosiy, iqtisodiy hamda mafkuraviy vositalar orqali o‘z turmush tarzi dunyoqarashi va qadriyatlarini targ‘ib etishga intilayotgani, bu hol boshqa xalqlarning milliy urf-odat va an‘analariga putur etkazayotgani, asrlar davomida shakllanib, tajribada sinalgan tarbiya usullarning faqat g‘arbova andozalar bilan baholanayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Bundan bir necha yil ilgari taniqli siyosatshunos S.Xantington bundan buyon butun dunyo faqat gamburgerlar iste‘mol qiladi, Amerikada chop etilgan kitoblarni o‘qiydi, Amerika televideniya ko‘radi, Amerikacha liboslar kiyishadi, deb taxmin qilgan edi. Bunday qarashlar zamirida qanday mafkuraviy maqsadlar yotganini payqash qiyin emas. Keyingi vaqtda butun dunyo g‘arb rahnamoligida birlashuvi, kelgusida hukumati bitta bo‘lgan yagona davlat tashkil topishi, pulga sig‘inishi va individualizm falasafasini targ‘ib etayotgan qarashlar tizimi vujudga kelayotirki, ular dunyo qiyofasini qay tarzda o‘zgartirib yuborishi mumkinligini hech kim tasavvur qila olmaydi. SHunga qaramay bunday qarashlar barcha vositalar yordamida, xususan, ommaviy axborot vositalari internet va xatto g‘arb mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar, kinofilm hamda videofilmlar orqali zo‘r berib targ‘ib etilmoqda. Lekin bunday qarashlar milliy tafakkurimiz, urf-odat va an‘analarimizga qanchalik mos keladi? Biz global integratsiyaga erishish uchun o‘ziga xosligimiz, an‘ana va qadriyatlarimizdan voz kechishimiz kerakmi? Unda mustaqilligimiz, milliy o‘zligimiz va xalqimiz taqdiri nima bo‘ladi?

Chindan biz o‘ta murakkab ziddiyatlarga to‘la axborot asrida yashayapmiz. Zamonaviy axborot texnologiyalari, bir tomondan jahon xalqlarining iqtisodiy ijtimoiy, madaniy-ma‘rifiy taraqqiyotiga hamda sayyoramiz taqdiri uchun mas‘uliyatni anglagan umumjamoaga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, dunyoning parchalanishi va jahon maydonida o‘zaro keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Dunyo miqyosidagi aloqalarning kuchayishida ayniqsa, Internetning o‘rni beqiyosdir. Bugun dunyoni to‘r singari o‘rab olgan Internet tizimi orqali istagan odam har qanday ma‘lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin. Odam bolasi tabiatan yangilikga, axborotga tashna ekan o‘z ehtiyojlarni qondirishda butun dunyo xabarnomasi bo‘lgan internet keyingi yillarda ko‘p ma‘qul va noma‘qul oqibatlariga olib kelmoqda. Internet biror bir davlat qonunlariga bo‘ysinmaydi va hech kimga o‘z faoliyati uchun hisob bermaydi. Yangi axborot makonida ma‘lumotlar juda katta hajmda joylashtiriladi va yashin tezligida tarqaladi. Ana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo‘lmoqda. YUrtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur‘atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi<sup>1</sup>.

Albatta, uning kishilar dunyoqarashi, bilimi va saviyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmaymiz. Lekin xuddi shu tizim orqali oddiy axloqiy me‘yorlarga zid pornosaytlar o‘rin olgani, ushbu zamonaviy axborot texnologiyasi mahsulidan transmilliy jinoyatkorona guruhlar, terrorist va aqidaparastlar ham bemalol foydalanayotganini ko‘zdan qochirib bo‘ladimi?

Internet sharoitida davlat chegaralari ochiq qoladi. Albatta, har bir mamlakat o‘z chegaralarini imkoni boricha himoya qilishga harakat qiladi. Masalan, Xitoy va

---

<sup>1</sup> Қаранг: Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 30-31 б.

Indoneziya birinchilar qatori internet xabarlarini uchun turli filtrlarni o'rnatdilar. Lekin bu borada biz ishonchli yo'l keng aholi qatlamida O'zbekiston manfaatlariga zid axborotga nisbatan immunitet hosil qilishdir. Agar internet tarmog'idagi saytlarni varaqlagan fuqaroda Vatan tuyg'usi, o'z xalqiga nisbatan e'tiqodi mustahkam bo'lsa, har qanday bo'xton va to'qimalarga ishonmaydi Immunitetga ega, iymoni baquvvat, g'ururi baland, siyosiy madaniyati etuk insonlarga yot g'oyalar ta'sir o'tkaza olmaydi.

Yoki televideniyaning ayrim kanallari orqali g'arb kompaniyalari maxsulotlari uzluksiz targ'ib etilayotgani qanday maqsadni ko'zlaydi? Nima sababdan yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar reklamasi ko'ngildagidek emas? Biz avvalo, mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlashga bel bog'lagan tadbirkor va ishbilarmonlarimizni qo'llashimiz lozim emasmi? Yoki biz uchun g'arb kompaniyalarining manfaatlarini afzalroqmi?

Telekommunikatsiya sohasidagi muammolarning yana bir jihatiga e'tobor qaratmoqchimiz. Ma'lumki, bugun nafaqat shaharda, balki qishloq joylarda ham kabel televideniya yoki maxsus antennalar vositasida Rossiya va boshqa mamlakatlar televideniya sharoitida sharqona axloq-odobga zid filmlar, beparda ko'rsatuvlarni ko'rayotgan yoshlarimizda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishi, ularning ilm ma'rifatga rag'obati oshishi mumkinmi?

Bir tasavvur qilib ko'ring G'arb ommaviy madaniyati, ba'zan insonning tuban illatlarini junbushga keltiradigan pop va rok musiqaga mahliyo bo'lgan ayrim yosh yigit-qizlarimiz xalqimizning bebaho ma'naviy durdonalari, dunyoda qiyosi yo'q mumtoz qo'shiq san'atimiz, lapar va aytishuvlar, betakror musiqaviy ohanglarimizni tinglarmikin? Bugun yoshlarimiz g'arb estradasining yulduzlarinigina emas, xatto "yulduzchalar"ning ham ismi sharifi, ishqiy sarguzashtlariyu-hayoti kechinmalarini besh qo'lday biladi. Ammo "SHashmaqom"dan birgina kuyning nomini so'rasangiz yohud Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy kabi ulug'

ajdodlarimizning jahon ilm fani madaniyati rivojiga qanday hissa qo‘shganini bilmoqchi bo‘lsangiz beparvo turaveradi.

Biz taraqqiyparvar insoniyat erishgan jamiyki yutuqlar, millatimiz rivojiga xizmat etadigan umuminsoniy qadriyatlar va demokratiya tamoyillarini inkor etishdan yiroqmiz. Biz faqat asrlar osha sayqal topib kelgan milliy urf-odat va an‘analarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi lozimligini ta‘kidlamochimiz xolos. Shuningdek, xalqimizning necha asrlik madaniy-ma‘naviy merosi, urf-odat an‘analarini targ‘ib etibgina qolmay boshqa millat- elatlar qadriyatlari va oilaviy an‘analarini o‘rganish o‘zga xalqlar ta‘lim tarbiya tizimida ro‘y beryotgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni tahlil etish yurtimizda oila institutining iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy asoslarini yanada mustahkamlash uchun yoshlarimizni ziyrak aql farosatli, dono ilm ma‘rifatli, vatanimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashiga fidokorona xizmat qiladigan etib tarbiyalashga zamin yaratgan bo‘lar edi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy tizimning yangilanishida, fuqarolik jamiyatini barpo etishni yanada chukurrok tahlil etishda OAV ning rolini xam nazariy, xam amaliy tarzda o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. «Axborot asri» deya nomlangan XXI asrda OAV vazifalari va ular bilan bog‘lik ijtimoiy-siyosiy muammolarni o‘rganishni davr taqozo etmokda. Shu nuqtai-nazardan, jamiyatimizda erkin fikrlilik, OAV orqali jamoatchilik nazoratini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch» asarida ta‘kidlaganidek, «Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o‘z kelajagini o‘ylaydigan xalq va millat buni sezmasligi, his qilmasligi mumkin emas»<sup>1</sup>.

Ommaviy axborot vositalarining eng faol tarkibiy qismlaridan biri televidenie o‘zida namoyish etilayotgan ko‘rsatuvlar, dasturlar, jamiyatdagi

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч» – Тошкент: Маънавият. 2008, – 8 б.

mavjud muammolarning nechog‘lik aks etishi bilan va kishilar ongiga qay darajada katta ta’sir qilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Televideniya voqelikni bir yoqlama yoritilishi ba’zan ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka olib kelishi, turli ziddiyatlarga sabab bo‘lishi hamda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham davlatimizda ommaviy axborot vositalarining faoliyati qonun bilan qat’iy belgilangan. Uning 7-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. E’lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, Shuningdek, ularning matni o‘zgartirilishini yoki butunlay nazardan olib qolinishini talab qilishga hech kimning haqi yo‘q»<sup>1</sup> deb qayd etilgan.

Televideniya imkoniyatining kengligi shunisi bilan xam ahamiyatliki, unda nafaqat ko‘rsatuvlar, balki efirga uzatilayotgan ko‘ngilochar dasturlar, kinofilmlarda jamiyatning muayyan muammolariga e’tibor qaratiladi, shu bilan birga uning saviyasi jamiyatdagi aksariyat kishilarning qiziqishi va dunyoqarashiga mos keladi. Yaqin tarixdan ham shunisi ma’lumki, muayyan jamiyatdagi ijtimoiy muammolar teledasturlarda, xujjatli va badiiy filmlarda o‘z aksini topadi.

Ma’lumki, mamlakatimizda davlat televideniylari bilan bir qatorda xususiy telekanallarning faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi. Bu telekanallardagi dasturlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy kabi bo‘limlarga bo‘linadi. Unda jamiyatimizning barcha jabhalari aks etgan teleko‘rsatuvlar namoyish etiladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan telekanallar bugungi kun tomoshabinlarini nechog‘lik qoniqtirishi hakida Respublika “Ijtimoiy fikr” Jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi olib borgan tadqiqot natijalarining ayrimlariga e’tiborimizni qaratamiz<sup>2</sup>.

“Telekanallarda namoyish etilayotgan ko‘rsatuvlar nechog‘lik sizni qoniqtiradi?” degan savolga respondentlarning 47,5 foizi qoniqtiradi, 36,1 foizi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонулар тўплами. – Тошкент. 1999.

<sup>2</sup> Молодёжь Независимого Узбекистана (социологическое исследование). – Тошкент, 2010. – С. 50.

ahamiyatli, 6,0 foizi, ahamiyatga ega emas, 10,4 foizi esa javob berishim qiyin degan javoblarni aytib o'tishdi.

Aksariyat zamonaviy yoshlar (83.6 %) televidenie kishi dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlashdi. Ularning bor-yo'g'i 4.0 foizi televideniening ahamiyatga ega ekanligini inkor qilishadi. "Teleko'rsatuvlarning aholiga salbiy ta'siri bormi?" degan savolga respondentlarning deyarli uchdan bir qismi (31.6 %) "bunday ko'rsatuvlar yo'q", 16,0% "bunday ko'rsatuvlar uchrab turadi", 10,9% "bunday ko'rsatuvlar ko'p", 10,7% "juda ko'p", 30,8% respondentlar esa "javob berishga qiynalaman" deb javob berganlar.

76,9% yoshlarning fikriga ko'ra, axloqsiz dasturlar chet el filmlarida ko'p uchraydi. Bunday fikr bildirgan respondentlarning 72,5% ini shaharlik yoshlar, 71,4% oliy ma'lumotli yoshlar, 68,% oliy o'quv yurtlari talabalari tashkil kiladi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tomoshabinlar turli xil kanallarni tomosha qilar ekan. "YOshlar" telekanalini 87,6%, "O'zbekiston" telekanalini 70,5%, "Sport" kanalini 36,5%, "TV Markaz" kanalini 27,7%, NNT kanalini 20,5%, "Toshkent" kanalini 13,2%, BIRINCHI kanal (Rossiya) 14,1% va maxalliy televidenielarini 11,3% tomoshabinlar muntazam kuzatib boradilar.

Ijtimoiy muammolarni televideniada aks etishini tadqiq etish asosida quyidagicha fikrlarni tasniflaymiz:

Huquqiy axloqiy muammolar; jinoyatchilik, giyoxvandlik, odam savdosi kabi illatlar ko'pincha "O'zbekiston" kanali va "Yoshlar" telekanallarining ijtimoiy siyosiy dasturlari orqali yoritiladi.

Oilaviy diniy munosabatlarga doir; ota ona va farzand, kaynona-kelin, to'y-hashamlar, urf-odatlar kabi masalalar madaniy ma'rifiy dasturlarda namoyish etiladi.

Axloqsiz xatti harakatlar va me'yorlardan og'ish hollari ko'pincha xususiy telekanallarda uzatiladigan musiqiy kliplar va kinofilmlarda uchrab turadi. SHunga qaramay, yuqoridagi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan telekanallar o'z teletomoshabinlariga ega.

Ularda namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarga ko'pchilik tomoshabinlar befarq emaslar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, televidenie aynan tezkorligi, xolisligi bilan jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning oshkora va ochiqligini amaliy jixatdan ta'minlab, tomoshabinlarga informatsiya bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ozuqa beradi.

## **II.BOB. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA UNING MILLIY G‘OYANI XALQIMIZ ONGI VA E‘TIQODIGA AYLANTIRISHDAGI ROLI**

### **2.1. Ommaviy axborot vositalari milliy g‘oyaning hayotga tadbiiq etishda muxim vosita**

Yoshlarimizda ishonchni, mustaqil, ijodiy fikrlashni shakllantirish, Vatanning taqdiriga mas‘ullik hissini rivojlantirishdir. Va, albatta, bizga yot bo‘lgan odatlar va qarashlarga nisbatan sobit e‘tiqodni yaratishdir.

XXI asrda O‘zbekistonimizni taraqqiy etgan jahonning peshqadam davlatlaridan biriga aylantirish uchun esa o‘zimizda, farzandlarimizda metin mafkuraviy e‘tiqod, umummilliy birlik bo‘lmog‘i kerak. Oliy o‘quv yurtlarida joriy qilingan yangi o‘quv fani - «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» ana shu birlikni, e‘tiqodni shakllantirishga qaratilgan o‘ta muhim va dolzarb vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy g‘oyaning hayotga tadbiiq etishda yoshlarimizga xos: o‘zini o‘zi takomillashtirishga intilish, o‘qishni o‘z kelajagi bilan bog‘lash (o‘qishga kirish, kasb tanlash); ba‘zan xatti-harakatlarda tajribasizlik tufayli uchrab turuvchi beqarorlikda, o‘z-o‘zini anglashning yangi bosqichga ko‘tarilishida, o‘zining «Men»idagi yutuqlar bilan birga kamchiliklarini ham anglay borish, tuyg‘ular etakchiligining bosila borishi, ilgari tengdoshlaridan izlagan namunani endi kattalar orasidan qidira boshlashi, o‘zini kattalar singari his qilishga moyillik, samimiy hamfikir qidirish va boshqa xususiyatlarni hisobga olish va ularga tayanish lozim.

Ma‘lumki, milliy g‘oyaning hayotga tadbiiq etish birdaniga yuz bermaydi. U milliy manfaatlar ustuvorligi nuqtai nazarini shakllantirish hamda talabalarni yangi, xolis tarixiy bilimlarga ega bo‘lishlari bilan amalga oshadi. Ta‘lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yoshlarning siyosiy qarashlarini shakllantiradilar hamda ularda yot mafkuralarning ko‘rinishlariga faol murossasizlikni tarbiyalaydilar. Bunda tarixiy materiallardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. “Men yaqinda bir manbada o‘qidim: o‘sha o‘rta asrlarda ham

din ahkomlarini o‘z qarazli manfaatlari yo‘lida noto‘qri talqin qilgan turli oqimlar bo‘lgan ekan. Moturudiy va Marg‘inoniy kabi diniy va dunyoviy ilmlardan chuqur boxabar bo‘lgan allomalarimiz siyosiy maqsad yo‘lida din mohiyatini buzib ko‘rsatgan bunday oqimlarga qarshi o‘z so‘zini, o‘z munosabatini bildirgan, ularning qiyofalarini ochib tashlagan. SHu mavzuda kitoblar yozib qoldirishgan”<sup>1</sup> .

Albatta bu mas’uliyatli ishda professor-o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, ma’naviyati, hayotga bo‘lgan g‘oyaviy-siyosiy munosabati katta rol o‘ynaydi. Buning uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qituvchilari zamonaviy yot g‘oya, mafkuralar kirdikorlari targ‘ibotining umumiy maqsad-niyatlarini bilishlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu yot mafkuraviy qarashlarni tanqid qilishga sayoz yondashish, soddalashtirishning oldini olishga yordam berdi. Zamonaviy mafkuraviy kurash xususiyatlarini, dushman mafkurasining munofiqligini hisobga olish, buzg‘unchilar tayanadigan asoslarni dalil-isbotlar bilan fosh qilish imkonini berdi. “Bu qabih kuchlarning yana bir niyati - yoshlarimizning bugungi ijobiy hayotiy intilishlariga zarba berishdan iborat. Chunki ularga yosh avlodimizning taraqqiyotga intilishi, hayotga boshqacha, zamonaviy ko‘z bilan qarashi yoqmaydi. Ularning maqsadi - bugungi eng taraqqiy topgan davlatlar bilan o‘rnatgan aloqalarimizni uzishga, yoshlarimiz tarbiyasini izdan chiqarishga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini yo‘qqa chiqarishga qaratilgan”<sup>2</sup> Milliy g‘oya va milliy manfaatga zid, yot harakat va intilishlarni biz aslo qabul qilmaymiz.

Bizning tarqibot-tashviqot ishlarimiz ko‘pincha tor doiralarda qolib ketyapti, hayotning keng qatlamlariga kirib borolmayapti, tajribasiz, qo‘r, bilimi, dunyoqarashi cheklangan ayrim yoshlarning ongiga etib bormayapti. Natijada ular bizga yot bo‘lgan tashqi ta’sirlarga, buzqunchi qoyalarga ko‘r-ko‘rona berilib, hatto o‘z ota-onasiga, xalqi va Vataniga qo‘l ko‘taruvchi yovuz qotillarga aylanmoqda.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 16-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 200016-бет.

Biz barcha ma'rifiy mamlakatlarda bo'lganidek, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish tarafdorimiz. Afsuski, mutaassib, nasl-nasabini unutgan kimsalar bilan g'oyaviy munozaraga kirishishning o'zi bir azob. Chunki ularning ongi shu darajada zaharlab tashlanganki, ular miyasiga o'rnashib qolgan aqidadan o'zga biron-bir haqiqatni tasavvuriga ham siqdira olmaydi. Agar ular bilan bahsga kirishmoqchi bo'lsangiz, ikkita savolga javob beradi-yu, keyin qotib turaveradi - uchinchi savolga javob berishga na bilim bor, na idrok, na hayotiy tajriba<sup>1</sup>.

Har bir fuqaro, yigit-qiz, o'quv guruhi, mahalla ahlining milliy g'oyaning hayotga tadbiiq etishdagi faoliyatini besh darajada baholash mumkin.

**birinchi, quyi daraja** – fuqaro, yoshlar milliy g'oyamiz mohiyatidan xabardor emas;

**ikkinchi daraja** – xabardor, lekin milliy g'oya chuqur anglanmagan, kundalik hatti-harakat asosi, motivlariga aylanmagan;

**uchinchi daraja** – bilimlar bor, lekin ular nazariy bo'lib, fuqaro, yoshlarimiz ularni kundalik hayotda qo'llashga qiynaladilar;

**to'rtinchi daraja** – milliy g'oya anglangan, g'oyaviy ta'sirni shaxsiy va milliy manfaatlar uyg'unligidan kelib chiqib baholay oladi: ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi asosli salbiy munosabat – immunitetni namoyon qila oladi, biroq, boshqalarni bu ishga da'vat qilmaydi;

**beshinchi daraja** – fuqaro, yoshlar milliy g'oyani o'z e'tiqodiga aylantirgan va buni hamma joyda, doimo amalda qo'llamoqda, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarga faol qarshi kurashadi, boshqalarni ham shunga faol da'vat qiladi.

Milliy g'oyaning hayotga tadbiiq etishda yuksak darajada shakllangan fuqaro atrofida g'ilarni ham g'oyaviy tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. O'zi va millati uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2000, 24-25-бетлар

Hozirgi davr ommaviy axborot vositalarii o'zning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan birgalikda, jiddiy muammolarga ham duch kelmoqda. Bunday muammolar jumlasiga milliy g'oyaga zid bo'lgan axborot yoki xabarlarni tarqatilishi va manipulyasiya qilinishi kabilarni keltirish mumkin.

Ba'zi bir gazeta va jurnallardagi sun'iy tarzda hosil qilingan abstrakt, tushunarsiz fikrlash, manba tomonidan axborot yoki xabarni faqat o'zining foydasiga bo'lgan qismini etkazish, real faktlarni xomaki, noreal xulosalar bilan yakunlash, o'z vaqtida javob bermasdan dolzarb muammoni "sovutish" va boshqalar ommaviy axborot vositalaridagi jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oqibatda esa bunday holat xalqni ommaviy axborot vositalariga ishonchini yo'qolishiga ham olib kelmoqda. "Darakchi", "Ko'ngil ko'chalari", "Sado", "Tasvir", "Erudit" va boshqa shu kabi shou – biznes uchun chiqarilayotgan gazetalardagi ba'zi maqolalarni bunga misol keltirish mumkin. "Halq so'zi", "O'zbekiston Ovozi", "Ma'rifat" va boshqa respublika gazetolari bundan mustasno. Bizningcha, ommaviy axborot vositalari orqali odamlarga g'oyalardagi manfaatlarini anglatmasdan turib, mafkurani ommalashtirib - xalqchillashtirib bo'lmaydi. Ammo uni faqat manfaatlarga bog'lab qo'yish maqsadga muvofiq emas. Chunki: **birinchidan**, jamiyatdagi kishilar, guruhlar, toifalar turlicha bo'lgani uchun manfaatlarning o'zi va ularga yondoshuvlar ham har xil. SHu bois mafkuraga faqat manfaatlar asos qilib qo'yilsa, u ziddiyatli bo'lib qoladi. **Ikkinchidan**, mafkura manfaatning o'zi emas, unga erishish usul-vositasidir. Mafkurani o'rganib, o'zlashtirish, undagi g'oyalarning mohiyatini anglash manfaat va maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lish demakdir. **Uchinchidan**, faqat manfaatlar bilan bog'liq g'oyaviy-mafkuraviy bilim, ong, asosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun zaiflik qiladi. Sababi, manfaat va unga tegishli barcha xususiyatlarning ruhiy-psixologik ildizlari insonlardagi xudbinlik asosi – «Men»ga borib taqaladi. Manfaatlar insonlardagi «Men»ni oziqlantiradi, uning kuchayishini rag'batlantiradi. «Men»ning kuchayishi esa inson ma'naviyatidagi muvozanatni buzadi. Xullas, o'zini bilgan har qanday

inson yoki millat o'z oldiga aniq maqsadlarni qo'yib, ularni ro'yobga chiqishiga albatta ishonishi zarur. Aks holda maqsadlar amalga oshmaydi. Milliy g'oya - el-yurt manfaati va maqsadlari uchun faqat ishonch-e'tiqodli insonlarga jon tikib kurashishi mumkin.

Milliy g'oyani el-yurt manfaati va maqsadlari uchun faqat ishonch-e'tiqodga aylantirishda ommaviy axborot vositalaridagi sub'ektlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatning sub'ektlari sifatida davlat tuzilmalari, ommaviy axborot vositalari, turli katta (korporatsiya, assotsiatsiya, birlashma, konsern...) va kichik (korxonalar, idora, vakolatxona...) tashkilotlar xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy bosqichda, ya'ni, internet paydo bo'lganidan keyin, shunday sub'ekt sifatida alohida shaxslar ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. SHunday qilib, milliy ommaviy axborot vositalari tizimida manfaatdorlik va ishonch-e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Milliy ommaviy axborot vositalari tizimidagi manfaatlarni anglash bilan mafkura shakllanadi, albatta. Biroq, bunday mafkura inson va jamiyat hayotida nisbatan passiv darajada amal qiladigan, ko'proq manfaatdorlikni qondirib, manfaatparastlikni rag'batlantiruvchi bo'lib qoladi. Mafkuraning bu darajasi undagi g'oyalarni to'la ro'yobga chiqarish uchun zaiflik qiladi. SHu nuqtai nazardan, g'oyalardagi manfaatlarni anglash - mafkuraning yuzaga kelib, inson va jamiyat hayotida amal qilishining muhim sharti, unga bo'lgan ishonch-e'tiqod shakllanishidagi birinchi va asosiy bosqichdir. Demak, manfaatdorlik mafkuraning shakllanib, rivojlanish asosini, ishonch-e'tiqod esa amal qilishining faol darajasini belgilaydi. G'oyalarning amalga oshishida aynan mafkuraviy ishonch-e'tiqod hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari orqali mafkuraning ishonch-e'tiqodga aylanib, xalqchillashishi va undagi g'oyalarning ro'yobga chiqishi uchun jamiyatda kishilarning mafkuraga amal qilishini rag'batlantiruvchi (stimul) rasmiy siyosiy, huquqiy asos va shart-sharoitlar bilan bog'liq real ijtimoiy (muhit) mexanizm-ruhiy-ma'naviy motiv ham bo'lishi lozim. CHunonchi, jamiyatda ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy-siyosiy maqomi hamda madaniyatli

kishilar mavqeining baland bo'lishi, o'z kuchi va bilimiga tayanib yashaydigan sog'lom mafkuraviy e'tiqodli kadrlarning qadrlanishi, umuman milliy taraqqiyot konsepsiyasidagi tamoyillarning hayotda to'la amal qilishi kabi omillar ana shunday motiv-mexanizm bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan ezgu maqsadlarni to'la ro'yobga chiqarish uchun xalqimizning milliy taraqqiyot mafkurasini chuqur o'rganib, o'zlashtirish va xalqchillashtirish, undagi g'oyalarga nisbatan mustahkam ishonch-e'tiqodni shakllantirish taqozo etiladi. Chunki, «Biz ertangi kungakelajakka tomon ko'zni yumib, taxminlarga asoslanib, tavakkalchasiqa ish tutib bora olmaymiz. Kishilar hozirdanoq biz qaysi yo'ldan boramiz, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning qanday shaklini yaratamiz, o'z tarixiy tajribamizning, jahon taraqqiyoti saboqlarining qaysi jihatlaridan foydalanamiz, kelajakda O'zbekistonning qanday qilib buyuk davlatga aylantiramiz, mustaqillik muammolarini hal etish uchun nimalarga e'tiborimizni qaratishimiz kerak, degan o'nlab, yuzlab savollarga javob topmoqlari zarur. Agar xalqimizni, millatimizni qiziqtirib kelayotgan barcha savollarga hozirdanoq aniq, ilmiy asoslangan javoblar, muhim yo'l-yo'riqlar bo'lmasa, odamlar bunga qat'iy ishontirilmasa, amaliy faoliyatimizda xato ketidan xatolarga yo'l qo'yaveramiz. Bu kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin».<sup>1</sup> Shuning uchun g'oyaviy-mafkuraviy sohada erishilgan yutuqlarimizni mustahkamlab, yangi bosqichlarda, izchil tizimli tartibda rivojlantirish va bu boradagi vazifalarni ijtimoiy taraqqiyotimizning asosiy tamoyillari, nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy yo'l-yo'riqlariga muvofiq samarali hal qilishda, bizningcha, milliy g'oyaning davlatimiz va jamiyatimiz qurilishiga oid yuqorida bayon qilingan masalalari atroflicha yoritilishi lozim.

Ana shunda: birinchidan, uning yurtimizda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurilishiga doir nazariy-metodologik mazmuni oydinlashib, fanlik maqomi ortadi va bu sohadagi dolzarb hayotiy muammo hamda vazifalarni aniqlab, hal qilish osonlashadi.

---

<sup>1</sup> Туленов Жондор. Диалектика назарияси. –Т. : «Ўзбекистон», 2001. –Б. 290.

Ikkinchidan, g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning samarali texnologiyalarini: konkret usul, vosita, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda qo'llash imkoniyatlari kengayadi. «Milliy g'oyani qanday qilib kishilar ongi va qalbiga singdirish kerak?», degan savolga javob yanada aniq bo'ladi.

Uchinchidan, milliy g'oya va mafkuraning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan bog'liq mazmunini, ularning individual va ijtimoiy, mikro va makro bosqichlarda har bir makon va zamondagi rivojlanish xarakterini sodda qilib tavsiflash mumkin bo'ladi. «Negadir milliy g'oyani hamma biladi, lekin mafkurani tushunmaydi» yoki «besh, o'n, yigirma yildan so'ng hayotimiz qanday bo'ladi?», «bizdan keyingi avlodlar qanaqa sharoitda yashaydi?» kabi muammo-masalalarni, ilmiy asoslarda, aniq-ravshan yoritib, odamlarda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot haqida real bilim-tasavvurlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Zero, kishilarimizda buyuk kelajak to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish g'oyaviy-mafkuraviy ishlarning eng muhim vazifalaridan biridir.

To'rtinchidan, milliy g'oyaning asosiy xususiyatlaridan kelib chiquvchi nazariy va amaliy ishlarning g'oyaviy-mafkuraviy mazmuni konkretlashadi. YA'ni, ijtimoiy hayotimizning turli soha, yo'nalish va bosqichlari rivojlanishiga doir g'oyaviy-mafkuraviy masalalar differensiallashib, milliy g'oyani ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib-tashviq qilish vazifalari konkretlashadi. Masalan, kelgusida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy va boshqa har bir sohadagi taraqqiyotimiz qanday bo'lishini yoki turli fanlar va ta'lim-tarbiya yo'nalishlarining g'oyaviy-mafkuraviy mazmunini tegishli tartibda aniq yoritish masalalari hal bo'ladi.

Beshinchidan, milliy mafkura jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruh, toifa va qatlamlarga tushunarli bo'lib, odamlarning unga qiziqishlari, o'rganib, o'zlashtirishga intilishlari kuchayadi. SHu tariqa, u xalqchillashib, asosida xalqimizning oliy maqsadi-Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo

etishga bo'lgan ishonch-e'tiqod yotuvchi o'ziga xos dunyoqarash, ruhiy-ma'naviy muhit, madaniy-ma'rifiy jarayon, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit yuzaga keladi.

Oltinchidan, kishilarimizda milliy g'urur o'yg'onib, ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlarga el-yurt, Vatan manfaatlaridan kelib chiquvchi mustaqil fikr, aniq hayotiy pozitsiya, mas'ul yondoshuv va munosabatlar shakllanadi. «Chunki hozirgi davrda, xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o'z fikri, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan xalq va jamiyatgina engilmas kuchga aylanib, o'z kelajagini o'z qo'li va aql-zakovati bilan qurishga qodir bo'ladi».<sup>1</sup>

Ommaviy axborot vositalaridagi axborot yoki xabarni tarqatish mexanizmi esa katta axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Milliy g'oyani targ'ib etishda yoshlar faoliyati va ommaviy axborot vositalari transformatsiyasi kelganda aytish kerakki, har bir shaxs va ijtimoiy qatlam qabul qilgan axborotini o'zining yoshi, hayotiy tajribasi, millati, bilimi, kasbi, jamiyatdagi mavqei nuqtai nazarlaridan qabul qilib, ushbu ko'rsatkichlarga qarab moslashtiradi, yoki, boshqacha qilib aytganda, qabul qilingan ma'lumot ma'lum bir transformatsiyaga uchraydi. Odamning tajribasi va bilimi qancha ko'p bo'lsa, unga chetdan turib ta'sir qilish imkoniyatlari shuncha kam bo'ladi.

Har xil uslublarda, barcha OAVda ma'lum bir fikrni takrorlash odamning ostki ongiga ta'sir etadi va u ushbu fikrga ishonaydigan bo'ladi. Mazkur jarayonni mutaxassislar neyrolingvistik dasturlash deb ataydi.

Agar radio, televidenie va ommaviy axborot vositalarida ayrim davlat, guruh yoki shaxs haqida qayta-qayta biror-bir noto'g'ri baho takrorlanaversa, turli mamlakatlardagi halqlar, har xil millatlar unga ishonadilar. Neyrolingvistik dasturlash uchun eng qulay OAV televidenieidir, Chunki u auditoriyaga bir paytni o'zida uchta kanal orqali o'z ta'sirini o'tkazadi. AQSH kommunikativistlari televidenieni xatto trankvilizatorga ham o'xshatadilar.

---

<sup>1</sup> Каримов. И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари-энг олий кадрият. –Т. : «Ўзбекистон», 2005. –Б. 11.

Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan yangiliklarning ko‘rinishlari har xil bo‘ladi: voqea, xodisa, raqam, familiya, lavozimlar, joylar nomlari aks ettirilgan xabar, lavha, reportaj, ma’lumotnomalar va x.k. Bugungi kunga kelib yangiliklarni etkazish usullari g‘oyaviy kurashning katta bir yo‘nalishiga aylanib qoldi. Ushbu sohada esa nafaqat jurnalistlar, ular bilan bir qatorda siyosatshunoslar, polittexnologlar, iqtisodchilar, psixologlar, qisqasi, ommaviy axborotni ommaga etkazadigan barcha mutaxassislar ustasi farang bo‘lib ketganlar. Ularning mahorati shu qadar rivojlanib ketdiki, yangilikdan, uning mazmunidan qat’iy nazar, qanday xulosa chiqarish kerak bo‘lsa, shunday tarzda u auditoriyaga etkaziladi. Faktlarni esa kerakli tartibda tizimlashtirish qiyin emas, ularning ketma-ketligining o‘zi auditoriyaga kerakli ma’lumotni beradi va axborot etkazuvchi uchun zarur bo‘lgan dunyoqarashni shakllantiradi.

Ommaviy axborot vositalaridagi axboriy qarama-qarshilikning maqsadi – dunyoviy (global) axborot maydonida milliy manfaatlar ximoyasini ta’minlash. Mazkur masqadga erishish esa turli mamlakatlar tomonidan turlicha amalga oshiriladi: texnologik kuchli davlatlar hukmronlik qilishga intiladi, rivojlanayotgan davlatlar esa o‘zini himoyalashga harakat qiladi. Ikkala tomon ham o‘ziga qulay keladigan usullardan foydalanadi.

Ammo shuni ham aytish kerakki, texnologik jihatdan kuchli davlatning axboriy xujumi boshqa mamlakatlar aholisiga katta psixologik zarar etkazadi. Chunki bunday urushni to‘xtataydigan va agressor-davlatga nisbatan chora ko‘rish uchun imkoniyat yaratadigan halqaro me’yoriy xujjat yo‘q. Rivojlangan mamlakatlar ushbu vaziyatdan keng foydalanmoqdalar.

Xorijiy OAV ekspansiyasidan himoyalaniş uchun eng qulay choralardan biri – mahalliy OAV. O‘zbekiston sharoitida buning uchun milliy gazeta, radio va televideniemizning imkoniyatlari bor, faqat ulardan samarali foydalanishimiz zarur. Buning uchun bosh omil va mustahkam fundament – milliy istiqlol g‘oyasidir.

Har bir halq yoki millat tarixiy rivojlanib va shakllanib kelgan va ushbu ko'p asrlik jarayonning o'zi qaysi bir yashash usuli to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlab bergan. Agar ustiga ustak u yoki bu xalqqa mana bunday yashanglar, bu to'g'ri bo'ladi deb, uni shunga majburlasa, albatta, bunday zo'ravonlik, jumladan, "demokratik fundamentalizm" ko'pchilik tomonidan qabul qilinmaydi. Agar xorijiy OAV yoki tashkilotlar O'zbekiston xududida umuminsoniy qadriyatlarni tarqatishga yordamlashsa, ular o'zbekistonliklar tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Bunga misol sifatida mamlakatimizda ko'p yildan beri faoliyat ko'rsatadigan Konrad Adenauer yoki Fridrix Ebert jamg'armalarini aytish mumkin.

Inson bosh miya qobig'ida 14 mlrddan oshiq neyrollar joylashgan. Ularning vazifasi-inson faoliyatini boshqarish. Har qanday harakat-ularning mahsulidir. Demak uning o'zini namoyon qilish qobiliyati ham beqiyosdir. Lekin u o'z resuruslarining 4-4,5% gina foydalanadi. SHundan 4%-8-11 yoshgacha oladi, ularning oxirigacha esa-0,5% qabul qiladi.

Donolarning aytishicha, odam miyasidagi intellektual kuch atom yadrosidagi beqiyos kuchga teng. Gap uni qanday rivojlantirish va qay darajada ishlata bilishdadir. Daholarni tarbiyalash o'ta murakkabdir, bugungi kunda ilm-fan xulosasi va hisob-kitobga ko'ra insoniyat tarixida 400 ga yaqin kishilar daholar sifatida tan olingan, xalos.

Har qanday daho guruhda tarbiyalanadi, u guruhning fikr-mulohazasini o'zida aks ettiradi, uni maqsadga elitishda birlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi.

F.Teylor-fikricha,targ'ibot-shaxslarning kommunikatsiyasida, almashuvida muhim o'rin tutadigan vositadir. Targ'ibot-bu shaxsiy g'oya yoki mafkurani aloqa orqali ko'pchilikning yoki yakka shaxsning qiziqishini qondirish uchun uzatish.

D.Blekning fikricha esa, targ'ibotning vazifasi 1 chi o'rinda murosaga kelish emas (konformizm), balki tarafdorlar sonini ko'paytirishga qaratilishi kerak. Demak muayyan guruhga ta'sir etish.

Sovet davri propagandasida dogmatik xususiyat mavjud edi: u asosan eshitilayotganga emas, gapirayotganga qaratilgan edi (GAPIRUVCHI-eshituvchi).

Hozirgi kunda targ'ibotning tarkibiga quyidagi turlar kiradi:

1. «Oq propaganda»-informatsiya beruvchi to'g'ri haqiqiy informatsiyaga tayanadi

2. «Ola propaganda»-ma'lumot ma'nbai ham chin, ham hato asoslarga tayanib ish ko'radi, informatsiya aniqligi tekshirilmagan

3. Qora propaganda-soxta «markaz» (nomalum radiostansiya, soxta rasmiy organlar yoki siyosiy partiyalar) oldindan ma'lum yolg'on axborotni tarqatadi.

Propoganda ob'ekt (inson ongi, qalbi, mafkuraviy va ijtimoiy dunyosi) va sub'ekt vaqt davomida o'zgaruvchan hamda muayyan ijtimoiy fikrni shakllantirishdan manfaatdor bo'ladi,

Propoganda salbiy ma'noda bir tomonlama ta'sirni anglatadi (gapiruvchi-eshituvchi). Bu so'zning yangi sinonimi «PR»-auditoriyaga katta e'tibor qaratish, javob aloqani o'rnatishni talab qiladi. PR ning vazifasi-turli hatti-xarakatlarni va g'oyalarni tushuntirish, yo'naltirish, PR va propoganda ommaviy auditoriyaga qaratilgan. U ham, bu ham ko'pchilikni qiziqtiruvchi va dolzarb muammolar va ularning bartaraf etish yo'llari va masalalarni echishga qaratilgan.

Auditoriya-ommaviy kommunikatsiya adresati bo'lib o'zaro aloqadagi (masalan talabalar) yoki aloqada bo'lmagan (masalan, TV auditoriya) shaxslar guruhidan iborat. Auditoriya yoshi, bilim darajasi, kasbiy xususiyati, ijtimoiy holati, faoliyati, yashash joyi va hakoza xususiyatlariga asoslanib turlanadi.

Har bir shaxs, amalda, eshituvchi, tinglovchi, ya'ni katta makroauditoriya a'zosi.

Xozirgi kunda tashqi va ichki auditoriya (shaxsiy ishchilar, kompaniya a'zolari) ga ta'sir etish usullari kengroq tarqalmoqda.

PR mutaxassislarining fikriga ko'ra quyidagicha ta'riflanadi:

1) Geografik-yashash joyi belgilanadi (pochta kodi, shaharlar chegarasi, telegraf kodlari, va hak)

2) Demografik-jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, oilaviy ahvoli, daromadiga ko'ra ajratish. Lekin ularning psixologik holati aniqlanmagan:

3) Psixografik-psixologik turlar, temperamenti, baholash mezonlari:

4) YAshirin kuch-voqea yoki hodisani amalda chetda turib boshqaruvchi shaxslar:

5) Lavozimlar-hatti-harakatni belgilovchilar;

6) Reputatsiya-umumiy masala echimini topishda ko'pchilik qo'llab quvvatlovchi g'oyalar yo'l boshchilarni aniqlash:

7) A'zolik-turli ijtimoiy hududiy guruhlarga a'ziligini aniqlash (nimaga qiziqadilar)

8) YA gona fikr-eng aktiv a'zolarining fikr-mulohazasini aniqlash.

Hozirgi kunda propoganda qiziqishini chiqaruvchi emas, balki iste'molchi, ish sohasi emas, dam olish-servis sohasi tortmoqda.

Hozirgi kunda targ'ib vositalariga quyidagilar kiradi:

1) Davlat va nodavlat OAV (TV, radio, pressa, reklama agentliklari)

2) Siyosiy partiya va haraktlar, ommaviy jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va ijtimoiy-siyosiy masalaga oid informatsion tashkilotlar. Ko'pincha ob'ekt o'zi tushunmagan holda u yoki bu tanlovni amalga oshiradi. Buning uchun «ommaviy shaxs» dunyoqarashini shakllantirishda axborot ta'siri muhim o'rin egallaydi.

## **2.2. Milliy g'oyani xalqimiz ongi va e'tiqodiga aylantirishda matbuotning o'rni**

Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotga ta'siri haqida gap ketganda, uning kuchi jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqishida, mavjud muammolarga jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilishida, davlat organlari faoliyatini nazorat qilib borishida ko'rinadi. SHu ma'noda u xalqni hokimiyat bilan bog'lovchi vosita-mexanizm hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy texnik uskunalar, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo'lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda: ommaviy axborot vositalarining huquqiy poydevori barpo etildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, qonunga muvofiq ish yuritishi, senzuraga yo'l qo'ymasligi (67-modda) alohida belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, mamlakatimizda xususiy ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga ham keng sharoit yaratilib, dunyoning turli mamlakatlardan mustaqil ravishda axborotlar olish imkoniyati yuzaga keldi. Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz zarur, deb o'ylayman. YA'ni, bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, Shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 31 б.

1996 yil 26 avgustda Oliy Majlis tomonidan «Noshirlik faoliyati to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Xususan, 1997 yil 24 aprelda «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida», 1997 yil 26 dekabrda «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalarining demokratik jamiyatga xos huquqiy asoslarini belgilab berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 490 ta gazeta va 138 ta jurnal ro'yxatga olingan. 1996 yil may oyida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi ham tashkil qilindi.

1996 yilning may oyidan boshlab respublikamizda jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi. «Internet»ning 50 million abonent bo'lib, jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a'zo bo'lishgan. U butun dunyo bo'yicha turli sohalardagi yangiliklar qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o'z abonentlariga tez va aniq etkazib beradi. 1996 yil 7 mayda esa «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televidenie va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmon qabul qilindi. Unda O'zbekiston Davlat televidenie va radioeshittirish Qo'mitasi O'zteleradiokompaniyaga aylantirildi. Bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot vositalari (OAV) mustaqillikni mustahkamlash, xalqqa tezkor va ob'ektiv xarakterdagi axborotlarni etkazib berish minbariga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo yosh avlod ongiga singdirishda alohida o'rin tutadi. Ular ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. «To'rtinchi hokimiyat» hisoblangan OAVlari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, hayotimizda yuz

berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

YUrtboshimiz Islom Karimov 2002 yil 29 avgustda Oliy Majlis 9-sessiyasidagi «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlari yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» deb nomlangan ma'ruzasida 7 ta ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida to'rtinchi yo'nalishda bevosita inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, Shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlar-ning ochiqqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilish zarurligini belgilab berdi. Unda axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari - matbuot, radio-televidenie faoliyatini erkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish jarayonining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi zarurligi aytib o'tildi. Bunda Prezidentimiz tomonidan «Ommaviy axborot vositalari sohasida iqtisodiy munosabatlarning asoslari to'g'risida», «Teleradio faoliyati to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilish zaruriyati haqida ham fikr yuritdi.<sup>1</sup>

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarni haqqoniy yoritish talab etiladi. Negaki, bordiyu berilayotgan xabarlar, ayniqsa xorijiy mamlakat xususiy teleradiokompaniyalari tomonidan uzatilayotgan noxolis ko'rsatuv va eshittirishlar fuqarolar siyosiy ongiga boshqacha ta'sir etishi mumkin. SHu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro'y bergan voqealar munosabati bilan 14 may kuni Oqsaroy qarorgohida, 17 may kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida mamlakatimiz va chet el jurnalistlari hamda diplomatik korpus vakillari uchun o'tkazilgan matbuot anjumanlaridagi bayonotlar va muhbirlarning savollariga javoblari har qanday insonni befarq qoldirmaydi<sup>2</sup>. Albatta buni talaba-yoshlar siyosiy ongiga etkazish bugungi kunning talabidir.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дуне билан ҳамкорлик йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2003. Т.11. Б.23-27.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: Ўзбекистон, 2005 – 160 б.

Hayotiylik bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biridir. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini o'ylab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo'lishi tabiiy. Bu isbot talab qilmaydigan aksioma. SHunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, o'zini ko'rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak, muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim<sup>1</sup>.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. SHu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demak, mafkuraviy hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas. Masalan, AQSH fuqarolarida demokratik tamoyillarning bir oz qadrsizlanishi kuzatilgan edi. Mutaxassislar tomonidan mazkur muammolarning turli echimlari taklif qilindi, lekin targ'ibotning bir oz noan'anaviy usuli tanlab olindi. YA'ni demokratiya kamchiliklari oshkora aytildi, uning ba'zan «ishlamayotgani» ochiq tanqid qilindi va unga muqobillar sifatida kommunizm va monarxiya targ'ib etildi. Targ'ibotning bu usuli kutilgan samarani berdi: odamlar «yomon bo'lsa ham, demokratiyadan qo'ymasin», - degan fikrga keldilar va demokratiyaning ashaddiy himoyachilariga aylandilar.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bunday informatsion qo'poruvchilikdan maqsad - mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi hurujlarning maqsadini oydinlashtiradi.

---

<sup>1</sup> Эргашев И. ва бошқалар. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. – Т.: Академия, 2005, 305 – 310 – бетлар.

Yirik siyosatchi, Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: «Ommaviy axborot vositalari - terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi», - degan edi. Bu gapning mag'zini chaqqan odam «ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan», degan xulosaga keladi. Zero, ularning maqsadlari - o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, ko'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga «xizmat» qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlari haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi bugungi kunda targ'ibotni kuchaytirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Milliy g'oya demokratik jamiyat shakllanishining omili sifatida ijtimoiy-falsafiy tahlili, uning tarixiy ildizlariga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, kishilik jamiyatining ming yillar davomidagi tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviyatsiz, kuchli va izchil milliy g'oyasiz, sog'lom mafkurasiz har qanday ijtimoiy tizimning rivojlanishi mumkin emas.

Milliy g'oyaning ijtimoiy hayotdagi roli, ularda ilgari surilgan g'oyalarning tahliliga alohida to'xtalmasdan biz quyida ko'proq e'tiborimizni milliy g'oyani xalqimiz ongi va e'tiqodiga aylantirish – mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurishning muxim omili masalasiga qaratishni lozim topdik.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” asarida, “Biz XXI asrda yashaydigan yangi uyimizning poydevorini qurishni boshladik, xolos. “O'zbekiston yangi asr boshida” degan uzoq muddatga mo'ljallangan, keng qamrovli rivojlanish dasturini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etish vaqti keldi.

Bu dasturda har bir fuqaro, har bir vatandoshimizning bugungi va kelajak manfaatlari o'z ifodasini topishi lozim”<sup>1</sup>, - deydi. Binobarin, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishning asosiy vositasi bo'lgan milliy g'oya ana shu dasturning asosiy negizlaridan biridir. Unda ilgari surilgan g'oyalar mamlakatimizning kuchli

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Кучли давлатдан кучли жамият сари.-Т.: Шарқ, 1998.-Б. 31.

milliy davlatchiligimizdan, jahon tan olgan kuchli jamiyatga o'tishning, demokratiya yo'lidagi taraqqiyotning ob'ektiv zaruriyati, qonuniy hosilasi, O'zbekiston fuqarolarining millat va etiqodidan qat'iy nazar maqsad muddaolarining ifodasidir.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish nazariyasining asoschisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov fikrlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, uning uchun qo'yidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim.

Birinchidan, qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonunlarga so'zsiz itoat etishi.

Ikkinchidan, boy milliy ma'naviy merosimizga tayanish.

Uchinchidan, jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish.

To'rtinchidan, kishilarning erkinligi va manfaatlarini himoya qilish.

Beshinchidan, demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida nodavlat, notijorat tashkilotlarning, jamoat birlashmalarini rolini oshirib borish.

Oltinchidan, demokratik jamiyat barpo etishda mahalla ijtimoiy institutining rolini oshirib borish.

Ettinchidan, demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash va adolat tamoyilining qaror topishi.

Milliy g'oya rivojlanishi kuchli jamiyat shakllanishi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHu bilan birga, milliy g'oyaning rivojlanishi millat ma'naviy taraqqiyotining darajasi bilan ham belgilanadi. Demak, milliy g'oya va milliy mafkura barkamol ijtimoiy ong va umuman madaniyatning rivojlanishining mahsuli sifatida yuzaga keladi hamda demokratik jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Milliy g'oya xalqning o'zligini anglatuvchi, milliy his-tuyg'ularini uyg'otuvchi, milliy g'urur va oriyatini qo'zg'atuvchi, uning qadr-qimmatini tiklovchi, ijodkor va yaratuvchanligini ruyobga chiqaruvchi, jamiyat taraqqiyotini insonparvarlik yo'nalishiga etaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Millatning, davlatning, yurtning qadr-qiyamatini yuksaltiradi, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va

ma'naviy salohiyatini yuzaga chiqaradi. SHu ma'noda, milliy g'oya o'zbek millatining o'ziga xosligi nimada ekanligini asoslab beruvchi nazariy va falsafiy qarashlar tizimidir<sup>1</sup>.

Milliy g'oyaning asosiy tayanch nuqtasi ham, harakatga keltiruvchi, uyg'otuvchi kuchi ham milliy o'zlikni anglashdir. Millat o'zini xalq sifatida, millat sifatida, el sifatida anglamagunicha uning obrui, qadr-qimmatini, or-nomusi haqida qayg'urishi, milliy faxr va g'ururi haqida kurashishi mumkin emas. O'zlikni anglash xalqni g'aflatdan uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchdir<sup>2</sup>.

Milliy g'oya demokratik tamoyillar asosida shakllanayotgan milliy taraqqiyotimiz qonuniyatlariga va manfaatlar uyg'unligiga mos kelib, mustaqillikni mustahkamlash va uni asrab-avaylash, himoya qilish omili sifatida, inson ongini boshqarishni emas, aksincha, uni bunyodkor g'oyalar sari yo'naltira oladigan oliy qadriyatdir. SHu bilan birga, milliy g'oya oliy qadriyat sifatida inson, millat, xalq, mamlakat sha'ni, uning qadr qimmatini, qolaversa, milliy o'zligini hurmat qilishga tayangan holda, dunyo hamjamiyati rivojlanishi talablariga javob beradi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy vazifalaridan biri - bu taraqqiyot strategiyasini aniq belgilab olish va uni hayotga joriy etish uchun qattiq nazorat olib borishdan iborat bo'ladi. Ana shunday davlat kuchli davlat bo'la oladi va demokratik jamiyatni shakllantirish, demokratik qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish jamiyatimiz rivojlanishining bosh konsepsiyasi va milliy ravnaqimiz asosi hisoblanadi.

O'zbekistonda kuchli davlat zaminida shakllanayotgan demokratik fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadlaridan biri, avvalo, shaxslararo, millatlararo, jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Тўраев Б., Раматов Ж. Миллий истиқло ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдиэлари.-Т.: Ижод дунёси, 2002.-76 б.

<sup>2</sup> Қаранг: Ўша жойда.

Bizningcha, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari rivojlanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish jarayonida qo‘lga kiritilgan eng muhim yutug‘imiz, bu avvalo, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik bo‘lib, uni yanada mustahkamlash va rivojlantirish esa o‘z navbatida qo‘yidagi omillarga bog‘liq.

Birinchidan, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tish jarayoni tadrijiy xarakterga ega bo‘lib, davlat tizimini barcha yo‘nalishlari fuqorolik va huquqiy davlatning asosiy tamoyili bo‘lgan qonun ustuvorligi tamoyili asosida faoliyat yuritmog‘i lozim.

Ikkinchidan, mintaqada millatlararo munosabatlarda tinchlik va totuvlikni ta‘minlash.

Uchinchidan, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va shu asnoda xususiy tadbirkorlikni oilaviy fermerlar xo‘jaliklari faoliyatini, mulkning xilma-xilligini keng yo‘lga qo‘yish.

To‘rtinchidan, inson huquqlarini ta‘minlash, ularning huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish.

Beshinchidan, O‘zbekistonni jahon hamjamiyatiga jahon iqtisodiy tizimiga yanada chuqurroq va keng ko‘lamda kirib borishi.

Oltinchidan, ma‘naviy-mafkuraviy qadriyatlarimizni rivojlantirish jarayonida ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Milliy g‘oya haqida gap borar ekan, ishimizning mohiyati “milliy g‘oya” va “milliy istiqlol g‘oyasi” tushunchalariga aniqlik kiritish zaruriyatini ko‘rsatadi. “Milliy g‘oya har bir davrda aniq bir mazmun kasb etadi, -deydi A.Ochildiev. - Xususan milliy istiqlol g‘oyasini milliy g‘oyaning mustaqillikni qo‘lga kiritish va mustahkamlash davrini o‘ziga xosliklarini yaxlit tarzda xarakterlaydigan xususiy holati, ko‘rinishi sifatida baholash mumkin. SHu nuqtai nazardan qaraganda, “milliy g‘oya” “milliy istiqlol g‘oya”siga nisbatan kengroq mazmunga egadir. Zero, milliy istiqlol g‘oyasi milliy rivojlanishning muayyan bosqichigagina xos bo‘lgan qarashlar tizimini ifodalaydi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. -Т.: Ўзбекистон, 2004.-Б. 15

YUqorida qayd etilgan milliy g‘oyani xalqimiz ongi va e‘tiqodiga aylantirish – mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurishning muxim omili masalalarini qay darajada bajarilishi, amalga oshirilishi, istiqbolda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni teran anglab, tushunib etishga, hamda ularni amalga oshirishdagi sa’y-harakatlariga, kuchli ma’naviyatiga va milliy g‘oyaning ijtimoiy voqelikda namoyon bo‘lishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

## XULOSA

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida farzandlarimizni hech kimdan kam bo'lmagan insonlar etib tarbiyalash, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini himoyalash, ta'lim-tarbiya olishi, salomatligini mustahkamlash yo'lida g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning pirovard maqsadini tashkil etadi. OAV mana shunday vazifalari orqali barkamol avlod tarbiyasiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib, qo'yidagi nazariy va amaliy tavsiyalarni keltirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

-milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

-bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroflicha sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni xushyorlikka va ogohlikka da'vat etish, olimlar, siyosatchi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish;

-sog'lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish.

- yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyati muhim ijtimoiy-ma'naviy zarurat sifatida ortib bormoqda. Shu sababli zamonaviy oliy o'quv yurti ma'naviy-ma'rifiy ishlari mazmuni va ularni yanada takomillashtirishni, ya'ni mafkuraviy muammolarni va g'oyaviy kurash masalasini yanada chuqur ilmiy-pedagogik tahlil qilish, talaba yoshlarda amaliy mafkuraviy

ko'nikmalarni shakllantirish yo'llarini yaxshilash, talabalarni mafkuraviy targ'ibotga tayyorlash metodlarini ishlab chiqishni talab etadi.

- ommaviy axborot vositalari orqali mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va O'zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta'minotini ta'minlash ishida ommaviy axborot vositalari va elektron ommaviy axborot vositalari harakatini birlashtirish zarur. Ommaviy axborot vositalarining o'quvchi bilan muloqot yo'li asosan mantiqiy isbotdan iborat, bunday ta'sirga ma'lum miqdorda tasvir ham qo'shiladi: gazetadagi rasmlar, rang, sarlavhalar ko'rinishlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Hozirgi davr ommaviy axborot vositalarii o'zning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan birgalikda, jiddiy muammolarga ham duch kelmoqda. Bunday muammolar jumlasiga milliy g'oyaga zid bo'lgan axborot yoki xabarlarini tarqatilishi va manipulyasiya qilinishi kabilarni keltirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Rasmiy hujjatlar

1.1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 40 б.

1.2. Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилишда партиялар ролини янада кучайтириш тўғрисидаги Қонун. 2006 йил 8 ноябрь. // ЎЗР Олий Мажлиси Ахборотномаси. – Тошкент, 2006. – № 11. – Б. 75.

1.3. Таълим тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 1997 йил 29 август // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент, 1997. – Б. 20-29.

1.4. “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 1993 йил 2 сентябрь. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – Тошкент, 1993. – № 9. – Б. 23-29

1.5. “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги тахрири) /Ўзбекистон Республикасининг оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 80 б.

1.6. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 1997 й. 29 август // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент, 1997. – Б. 30.

1.7. “Журналист кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. 1999 йил 26 февраль. // Халқ сўзи. – 1999. – 27 феврал.

1.8. Ўзбекистон Республикасининг ҳарбий доктринаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қарори. – Тошкент, – № 105-1. 1995 йил 30 август // Халқ сўзи. – 1995 йил 30 апрел.

## II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

2.1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

2.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. – Т.2. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

2.3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Т.3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

2.4. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т.4. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 349 б.

2.5. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. – Т.5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

2.6. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. – Т.6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.

2.7. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. – Т.7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.

2.8. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. – Т.8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

2.9. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. – Т.9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

2.10. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. – Т.10. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2.11. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. – Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003.

2.12. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Т.12. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004.

2.13. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

2.14. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрият. – Т.14. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.

2.15. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. – Т.15. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007.

2.16. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.16. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007.

2.17. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

2.18. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

19. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

2.20. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

2.21. Каримов И. Жамиятимиз мафқураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат қилсин. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 30 б.

2.22. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

2.23. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари / Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997..

2.24. Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар эди / «Независимая газета» мухбири саволларига жавоблар. 2005 й. 14 январь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

2.25. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқук ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий кадрият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.

2.26. Каримов И.А. Ҳамкорлик, тараққиёт ва хавфсизликни таъминлаш йўлидан // Халқ сўзи. – 2010 йил 22 сентябр.

2.27. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

### III. Qo`shimcha adabiyotlar

3.1. Абдуллажанов О. Диний ақидапарастликнинг келиб чиқиши, моҳияти ва Ўзбекистонга кириб келиши. – Тошкент: Академия, 2000. – 160 б.

3.2. Абдулқосим Замахшарий. Нозик иборалар. – Тошкент: Камалак, 1992. – 80 б.

3.3. Абдулла. Шер Ахлоқшунослик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 254 б.

3.4. Абу Али Ибн Сина. Философский трактаты. – М.: Наука, 1980. – С. 43.

3.5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Мерос, 1993. – 210 б.

3.6. Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001. – 98 б.

3.7. Абу Райҳон Беруний. Рухият ва таълим-тарбия ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 52 б.

3.8. Абу Райҳон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 68.

3.9. Авдеева Р.Ф. Философия информационной цивилизации. – М.:

ВЛАДОС, 1994. – 218 с.

3.10. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Халқ мероси, 1994. – Б. 32.

3.11. Алиев М.Г. Социализация согласия. – М.: ИФРАН, 1998. – 46 с.

3.12. Алимova Д. Инсоният тарихи – гоё ва мафкуралар тарихидир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 222 б.

3.13. Алексеева Т.А. Либерализм как политическая идеология. – М.: Полития, 2000. – 220 с.

3.14. Анчуков С. Геополитика как идеология и практика мирового исторического процесса. – М.: Страна, 1999. – 120 с.

3.15. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 1990. – 163 б.

3.16. Бекмуродов М. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. – Тошкент: Фан, 1999. – 170 б.

3.17. Беҳбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. – 232 б.

3.18. Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент: Фан, 1995. – 95 б.

3.19. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Тошкент: Университет, 1997. – 128 б.

3.20. Васильев Л.С. История религий Востока. – М.: Мысль, 2000. – 378 с.

3.21. Жакбаров М. Комил инсон гоёси: тарихий-фалсафий таҳлил. – Тошкент: Абу Али Ибн Сино, 2000. – 18 б.

3.22. Жаринов К.В. Терроризм и террористы: исторический справочник. – Минск: Харвест, 1999. – 606 с.

3.23. Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 188 б.

3.24. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча,

1989. – 368 б.

3.25. Ибн Сино. Фалсафий рисоалалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1963. – 109 б.

3.26. Иброҳимов А. Ўзбек маҳалласи. – Тошкент: Маънавият, 2007. – 48 б.

3.27. Иномова С.Т. Эъзозли аёл иқболи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 94 б.

3.28. Исоқов Б. Зиёлилик масъулияти. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 80 б.

3.29. Камилова С.С. Диний эътиқод, ақидапарастлик, сиёсат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 140 б.

3.30. Капица С.П. Сколько людей жило, живет и будет жить на земле: Очерк теории роста человечества. – М.: Аспект, 1999. – 210 с.

3.31. Кожушко Е.П. Современный терроризм: Анализ основных направлений. – Минск: Харвест, 2000. – 448 б.

3.32. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 233 б.

3.33. Крылова И.А. Проблема безопасности России в контексте глобализации. – М.: Институт философии РАН, 2001. – 94 с.

3.34. Крысько В. Секреты психологической войны. – М.: 1999. – 198 с.

3.35. Кузнецов Ю.П. Террор как средство политической борьбы экстремистских группировок и некоторых государств. – СПб, 1998. – 56 с.

3.36. Мадаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур: (XX аср сабоқлари ва XXI аср истиқболлари). – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007. – 127 б.

3.37. Маҳмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 56 б.

3.38. Михайлова Л.И. Социология культуры. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 1999. – 231 с.

3.39. Мухтаров А. Шахс тарбиясида миллий ғоя, эҳтиёж ва манфаатлар уйғунлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 136 б.

3.40. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 186 б.

3.41. Нартов Н.А. Геополитика. – М.: ЮНИТИ, 2000. – 359 с.

3.42. Никольский В. Введение в теорию национальной безопасности. – М.: Культура – Сеть, 2000. – 198 с.

3.43. Нисневич Ю.А. Информация и власть. – М.: Мысль, 2000. – 188 с.

3.44. Негодаев И.А. На путях к информационному обществу. – Ростов-на-Дону: Изд. ДГТУ, 1999. – 135 с.

3.45. Отахўжаев Ф. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 78 б.

3.46. Очилдиев А.С. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси: монография /А.Очилдиев; Масъул муҳаррир: Қ.Назаров; ЎзР Фан ва техн. Дав. кўмитаси, Респ. маънавият ва маърифат кенгаши, Ўзб-н файласуфлари миллий жамияти. – Тошкент: Ижод дунёси нашриёт уйи, 2002. – 32 б.

3.47. Очилдиев А.С. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Муҳаррир, 2009 – 96 б.

#### **4. Internet sayti**

4.1. Uzbekistan development gateway // [www.uzbekgateway.uz](http://www.uzbekgateway.uz);

4.2 // [www.readiness-guede.org](http://www.readiness-guede.org).

4.3 [www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz)